

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
T A` L I M V A Z I R L I G I**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası**

Mamarasulova Kamola

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA BOG'LANISHLI
NUTQ VA UNI EGALLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH**

5111700 - Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi
bo'yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: **o'qit. M.Hazratqulov**

Malakaviy bitiruv ishi Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida
bajarildi. Kafedraning 2016-yil 19-maydagi majlisida muhokama qilindi va
himoyaga tavsiya etildi
(bayonnoma № 10).

Kafedra mudiri: **dots.Shodiyev F.**

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2016-yil ____iyundagi majlisida
himoya qilindi va _____foizga baholandi (bayonnoma № ____).

YaDAK raisi: _____

A'zolari: _____

Samarqand – 2016

Reja:

Kirish. Mavzuning dolzarbligi.

I-bob. Bog'lanishli nutqni o'stirish usullari.

1.1 Bog'lanishli nutqqa qo'yilgan talablar

1.2. Boshlanishli nutqni o'stirishga yozma ishlarning o'rni

1.3. Adabiy asarlarni qayta hikoya qilish va bog'lanishli nutq

II bob. Kuzatishlar asosida bog'lanishli nutqni o'stirish.

2.1. Kuzatishlar asosida bog'lanishli nutqni o'stirish.

2.2. I-II- sinflarda bog'lanishli nutqini o'stirish.

2.3. III-IV sinfda kuzatishlar asosida bog'lanishli nutqini o'stirish.

Umumiy xulosalar.

Foydalangan adabiyotlar.

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizga o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, malakasini oshirish va jamiyatning yetuk kishilari qilib tarbiyalash uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida shaxs tarbiyasining milliy modelimizga asosiy etibor belgilangan bo'lib, unga nisbatan qo'yiladigan talablarning amalga oshirishi ta'lim islohatlarining yakuniy natijasini belgilab beradi va bu o'z navbatida maskur xujjatga shaxsning ijodkorligi va intellektual qobiliyatlari barkamollikning asosiy belgilari sifatida qaralgan.

Barkamol avlodni tarbiyalash g'oyalari yurt boshimizning qator asarlarida va ma'ruzalarida bayon qilingan. "Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch" asarida yoshlarni g'oyaviy jihatdan tarbiyalashga diqqat qaratilsa, (1) "Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyat barpo etish ustivor maqsadimizdir" (2) nomli ma'ruzada mamlakatimizdagi tinchlik osoyishtalik, qonunlarning mukammal bo'lishi kuchli davlat qurishning asosi sifatida ko'rsatiladi. Ma'ruzada ilgari surilgan bu g'oyalar barkamol avlod tarbiyasida zaruriy shartlardan biri hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim davri yosh avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalashda muhim va asosiy bosqichlardan hisoblanadi. Chunki, bu davrda bolalar bilim oladilar, tevarak-atrof bilan tanishadilar, tafakkurlari o'sadi, nutqlari boyiydi, qisqasi, tabiat va jamiyat haqidagi dastlabki bilim va tasavvurlarga ega bo'ladilar. Bunday tushunchalarga ega bo'lishlari uchun ularning ongi va nutqlari yaxshi rivojlanishi lozim. Boshlang'ich ta'limning bosh maqsadi ham kichik yoshdagi maktab o'quvchilarni ta'lim olishga o'rganishga qaratilgan faoliyatini shakllantirish asosida ularni tarbiyalash, hamda shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishdan iborat.

Nutqni o'stirish deganda ham og'zaki, ham yozma nutqning rivojlanishi nazarda tutiladi. Buni o'ztirish uchun maktabning imkoniyati cheksizdir.

Shuning uchun ham mazkur bitiruv malakaviy ishimiz uchun tanlangan mavzuni dolzarb deb hisoblaymiz.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini yozuvga o'rgatish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, pedagogika fanlari nomzodi professor K.Qosimova, pedagogika fanlari nomzodi Y. Abdullayeva «Sovg'a», «Alifboni o'rganamiz» risolalarida, professor Qumri Abdullayeva «Savod o'rgatish darslari» metodik qo'llanmalarida, Mirhabib G'ulomov, T. G'afforova, Rohatoy Safarova, X. G'ulomovalarning savod o'rgatishga bag'ishlangan metodik qo'llanmalari va ilmiy-metodik maqolalarida yozuvga o'rgatish borasida yaxshi metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. O'quvchilarni bog'lanishli nutqini o'rgatishda turli ta'limiy vositalardan foydalanish zarurligi aytib o'tilgan. Lekin boshlang'ich sinf o'quvchilarining bog'lanishli nutqini shakllantirishga oid alohida uslubiy ko'rsatma ishlab chiqilmagan.

Ishning ilmiy yangiligi. Malakaviy bitiruv ishimizda boshlang'ich sinf o'quvchilarining bog'lanishli nutqini o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari aniqlanib, etakchi va ilg'or o'qituvchilarning tajribalari hamda ilmiy maqolalar va ko'rsatmalar taqqoslandi. Shu bilan birgalikda, darsliardan va tavqimiy ish rejadan foydalanib maktabdan tashqari sayoxatlarda, kuzatishlarda, rasmlar asosida o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirishda oid fikrlar bayon etiladi.

Tadqiqot ob'yekti. Biz ushbu bitiruv malakaviy ishimizni yozish uchun o'tkazgan tajribalarimiz Surxandaryo viloyati Qumqo'rg'on tumanidagi 7-umumta'lim maktabining boshlang'ich 1-4 sinflarida o'tkazilgan tajribalar hamda mavzuga oid darsliklar, o'quv qo'llanmalar va uslubiy ko'rsatmalar.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Har qanday maqsadni bayon etishda ma'lum vazifalar ishlab chiqiladi. Shunga ko'ra ishimizda quyidagi vazifalarni hal etishga asosiy e'tibor qaratiladi:

- tanlangan mavzuning hozirgi kunda dolzarb va muammoligini dalillab berish hamda ishning nazariy ahamiyatini asoslash;
- ishning oldiga qo'yilgan vazifalarni aniqlash va yozishdan maqsadni asoslash;
- mavzuni oldin va hozirgi kunda qanday darajada o'rganilganligini aniqlash va tahlil qilish;
- bog'lanishli nutqni o'stirishda ona tili fanini hamda yozma ishlarning o'rni aniqlash va tahlil etish;
- nazariy fikrlarning umumiy xulosalarini tajribalar asosida yoritish;
- ishning amaliy ahamiyatini asoslash.

Mazkur vazifalarni hal etilishi bitiruv malakaviy ishning tuzilishini quyidagicha belgilashni taqozo etadi:

1. Kirish.Mavzuning dolzarbligi.
2. Birinchi bob.Bog'lanishli nutqni o'stirish –muammo sifatida.
 - 1.1.Bog'lanishli nutqga quyiladigan talablar.
 - 1.2. Bog'lanishli nutqni o'stirishga yozma ishlarning o'rni.
- 3.Ikkinchi bob. O'quvchilarni kuzatishlar asosida bog'lanishli nutqini o'stirish.
 - 2.1 I-II sinflarda bog'lanishli nutqini o'stirish.
 - 2.2.III-IV sinflarda kuzatishlar asosida bog'lanishli nutqini o'stirish.
- 4.Umumiy xulosalar.
5. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Tadqiqot usullari. Ushbu mavzuni yoritishda biz, asosan, nazariy adabiyotlarni, “Boshlang'ich ta'lim” oynomasidagi ilmiy maqolalarni tahlil qilib, ilg'or o'qituvchilarning ko'rsatmalaridan foydalanib mavzuni bayon etishda qiyoslash, taqqoslash va muhokama usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot predmeti. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bog'lanishli nutqini o'stirishda ona tili darslari orqali o'tkaziladigan yozma ishlarning o'rni ko'rsatib berildi.

Tadqiqotning metodologik asosi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, ona tili o’qitish metodikasi darsligi, boshlang’ich sinflarning ona tili darsliklari (I-IV-sinflar) ona tili o’qitish metodikasi fani bo’yicha ilmiy - uslubiy ishlar, ma’ruza matni, o’quv-uslubiy qo’llanmalar, ilmiy-uslubiy maqolalar va DTS asoslari.

Tadqiqotning ilmiy uslubiy yangiligi va nazariy-amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishda o’quvchilarning bog’lanishli nutqini o’stirishda yozma ishlarning o’rni benihoya ekanligi bevosita ona tili darslarida o’kazilgan yozma ishlar orqali ko’rsatib berildi. Bu nazariy fikrlarni bayon etishda oliy va birinchi toifali uslubchi-o’qituvchilarning maslahat va ko’rsatmalaridan, hamda o’rganilgan nazariy adabiyotlar taqqoslanib bayon etildi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bitiruv malakaviy ishda bayon etilgan nazariy fikrlarning ahamiyati bilan bir qatorda amaliy ahamiyati ham salmoqlidir. Chunki, ishdan boshlang’ich sinf o’qituvchilari va pedagogika fakultetining “5111700- Boshlang’ich ta’lim va sport-tarbiyaviy ish” yo’nalishi talabalari bimalol foydalanishlari mumkin.

Ishning muhokamasi. Bitiruv malakaviy ishning dastlabki muhokamasi Pedagogik fakul’teti Boshlang’ich ta’limda gumanitar fanlar va ularni o’qitish uslubiyati kafedrasida o’tkazildi.

Tadqiqotning ishning mundarijasi. Ishning Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi, nazariy va amaliy ahamiyati, ishning yozilishdan maqsad va vazifalari, uning tuzilishi, metodologik asoslari haqida fikrlar bayon etilgan.

Birinchi bob: “.Bog’lanishli nutqni o’stirish -muammo sifatida.” deb nomlanib, bu bobda bog’lanishli nutqni o’stirish oldin ham, hozir ham muammo ekanligi va uni bartaraf etish usullari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Ikkinchi bob: “Kuzatishlar asosida bog’lanishli nutqni o’stirish” deb nomlanib, bu bob ikki qisimdan iboratdir. Bunda I- IV sinf o’quvchilarini

kuzatishlar asosida bog'lanishli nutqini o'stirish haqidagi fikr va mulohazalar bayon etilgan. .

Ishning xulosa qismida uch bobda bayon etilgan fikrlarga umumiy xulosalar chiqarilgan.

Adabiyotlar ro'yxati.

Bitiruv ishni yozishda foydalanilgan ilmiy va nazariy adabiyotlar ro'yxati alfavit tartibida kiri

1-bob.Boshlang'ich sinflarda bog'lanishli nutqni o'stirish–muammo.

1.1 Bog'lanishli nutqqa qo'yilgan talablar.

Nutq-kishi faoliyatining turi, til vositalari asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar, o'z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi.

Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir.

Nutq o'stirish nima? Agar o'quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishini, bog'lanishli nutqni) faol amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi kuzda tutilsa, nutq o'stirish deganda, o'quvchilarning tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishi nutqni faol egallashlariga yordam beradgan metod va usullarini qo'llash tushuniladi. SHuning uchun ham Grammatik va imlo dasturi tovushlar va harfkar, so'z, gap bog'lanishli nutq kabi qismlarni o'z ichiga olgan. Ona tili dasturinig bo'limlari “{at savod o'rgatish va nutq o'stirish”, grammatika imlo va nutq o'stirish” deb nomlangan.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek o'quvchilar nutqini o'stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur.

1.Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak. O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki yoki yozma bayon qilish xohishini va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2.Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy, qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi. Shunday ekan, o'quvchilar nutqini o'stirishning ikkinchi sharti nutqga oid mashqlarning materiali haqida bo'lib, o'quvchi nutqi mazmunli bo'lishi uchun g'amxo'rlik qilish hisoblanadi.

3.Fikr tinglovchi tushunadigan soʻz, soʻz birikmalari, gap, nutq birliklari yordamida ifodalansagina tushunarli boʻladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli oʻstirishning uchinchi sharti-nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi. Oʻquvchilarga til namunalarini berish, ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur. Nutqni eshitish va undan oʻz tajribasida foydalanish natijasida bolalarda taʼlim metodikasiga asoslanadigan ongli ravishda “tilni sezish” shakllanadi. [14.132]

Nutq oʻstirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng tizimini yoritish, yaʼni, birinchidan, yaxshi nutq namunasini idrok etish, ikkinchidan, oʻrgangan til vositalaridan foydalanib oʻz fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi.

Bola tilini nutqiy faoliyat jarayonida oʻzlashtiradi. Buning oʻzi yetarli emas, chunki u nutqni yuzaki oʻzlashtiradi. Nutqni egallashning qator usullari mavjud. Bular :

1.Adabiy til meʼyorlarini oʻzlashtirish. Maktab oʻquvchilarini adabiy tilni sodda soʻzlashuv tilidan, sheva va jargosidan farqlashga oʻrgatadi, adabiy tilning badiiy, ilmiy soʻzlashuv variantlari bilan tanishtiradi.

2.Jamiyatimizning har bir aʼzosi uchun zarur boʻlgan muhim nutq malakalarini , yaʼni oʻqish va yozish malakalarini oʻzlashtirish . Bu bilan oʻquvchilar yozma nutqning xususiyatlarini, uning ogʻzaki soʻzlashuv nutqidan farqini bilib oladi.

3.Oʻquvchilarning nutq madaniyatini takomillashtirish. Til jamiyatdagi eng muhim aloqa vositasidir. Tilning manba shu ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib, maktabda oʻquvchilarning nutq madaniyatiga alohida eʼtibor beradi. Bu vazifalarni bajarish uchun oʻqituvchi, oʻquvchilar bilan rejali ish olib borishi lozim. Buning uchun esa oʻquvchilar nutqining oʻstirish ustida ishlash tushunchasiga nimalar kirishini bilib olish muhimdir.

Nutq oʻstirishda uch yoʻnalish aniq ajratiladi:

1)soʻz ustida ishlash.

2) soʻz birikmasi va gap ustida ishlash.

3) bogʻlanishli nutq ystida ishlash.

Soʻz, soʻz birikmasi va gap ustida ishlash uchun lingvistik baza boʻlib leksikologiya (frazeologiya va stilistika bilan birgalikda), morfologiya, sintaksis xizmat qiladi; bogʻlanishli nutq esa mantiqqa, adabiyotshunoslik va murakkab sintaktik butunlik lingvistikasiga asoslanadi.

Koʻrsatilgan uch yunalish parallel olib boriladi: lugʻat ishi gap uchun material beradi; soʻz, zoʻz birikmasi va gap ustida ishlash bogʻlanishli nutqqa tayyorlaydi. Oʻz navbatida, bogʻlanishli hikoya va insho lugʻatini boyitish vositasi boʻlib xizmat qiladi.

Oʻquvchilar nutqini oʻstirish oʻz metodik vositalariga ega, oʻzining mashq turlari bor. Bulardan eng muhimlari bogʻlanishli nutq mashqlari hisoblanadi.

Nutq oʻstirishda izchillik toʻrt shartni, yaʼni mashqlarinh izchilligi, istiqboli, xilma-xilligi, xilma-xil mashq turlarini umumiy maqsadga boʻysundirish koʻnikmasini amalga oshirish bilan taʼminlanadi. Har bir yangi mashq oldingisi bilan bogʻlanadi va keyingisiga oʻquvchilarni tayyorlaydi, umumiy maqsadga boʻysungan holda yana qandaydir yangilik qoʻshadi.

Maktabda oʻquvchilar nutqini oʻstirishga ona tili oʻqitishning asosiy vazifasi deb qaraladi. Nutq oʻstirish faqat ona tili va oʻqish darslarininggina emas, balki oʻquv rejasidagi barcha fanlar (tabiatshunoslik, matematika, mehnat,tasviriy sanʼat, ashula darslari) ning , shuningdek, sinfdan tashqari oʻtkaziladigan tadbirlarning ham vazifasidir. [14.38]

Nutq turlari. Kishilar tildan fikr bayon qilish quroli sifatida foydalanadilar. Ular oʻz fikrlarini ovoz bilan eshittirib bayon qilishdan oldin u haqida oʻylab oladilar. Bu ichki nutq hisoblanadi. Ichki nutq eshittirilmagan va yozilmagan, “oʻylangan” (fikrlangan) nutqdir, bu nutq fikrlovchi kishining oʻziga qaratiladi. Tashqi nutq tovushlar yordamida eshittirilib yoki grafik belgilar bilan yozilib, boshqalarga qaratilgan nutqdir. Ichka va tashqi nutqning fiziologik tabiati bir xil, farqi—tashqi nutqda nutq aʼzolarining harakati tovushsiz yuzaga keladi.

Ichki nutq materialini tushunish va yodda saqlashga yordam beradi, tashqi nutqni o'stirishda birdan-bir zaruriy vosita hisoblanadi. O'ylash, fikr yuritish ichki nutqni asosida bo'ladi. Ichki nutq o'quvchini tashqi nutqqa, javobgarlikka his qilish gapirishga o'rgatadi. Ichki nutq jarayonida o'ylash o'quvchining nutqi va tafakkurining o'sishida muhim vositadir.

Maktabda o'quvchilarning tashqi nutqigina emas, balki ichki nutqi ham o'stiriladi. Bolalar ichda o'qishga o'rganadilar, turli vazifalarni o'zlari hal qiladilar, asosiysi – o'zlarining og'zaki va yozma fikrlarni tayyorlab oladilar.

Fikrni ifodalash usuliga ko'ra nutq og'zaki va yozma bo'ladi. Og'zaki nutq yozma nutqdan quyidagicha farqlanadi: og'zaki nutq tovush nutqi, yozma nutq esa grafik nutqdur. Og'zaki nutqda eshitish sezgisi, yozma nutqda esa ko'rish va harakat (qo'l harakati) sezgisi asosiy o'rin tutadi. Og'zaki nutq ham, yozma nutq ham kishilarning o'zaro aloqa quroli sifatida xizmat qiladi, ammo og'zaki nutq aniq hayotiy sharoitda, bevosita aloqa jarayonida yuzaga keladi, yozma nutqdan bevosita, aniq sharoitdan ajratilgan holda ham, kishi ishtirokisiz ham foydalaniladi.

Og'zaki nutq ko'pincha dialog tarzida, yozma nutq esa monolog tarzida bo'ladi. Yozma nutq logik izchillikga rioya qilgan holda, ayrim til shakllarini tushirib qoldirmay, ortiqcha takrorga yo'l qo'ymay bayon qilishni talab etadi. Shuning uchun yozma nutq ancha murakkab va mavhim hisoblanadi. Nutq o'stirish maktabida ona tili o'qitishning metodi bo'lib, til ustidagi ishlarning asosiysidir. Har bir ona tili darsi nutq ustirish mashqlariga qanday e'tibor berilganligiga, yuqoridagi tamoiliga qanday amalga oshirilayotganligiga qarab baholanishi zarur.

Nutq o'stirish tafakkurni o'stirish demakdir, chunki nutq tafakkur bilan chambarchas bog'liq. Bolaning fikrlash qobiliyatini o'stirishga e'tibor bermay turib, nutqni o'stirish mumkin emas. O'qituvchining muhim vazifasi bitta fikrining mazmunli, mantiq jihatdan to'g'ri va izchil bo'lishiga g'amxorlik qilishdir. O'qishni hayot bilan bog'lash, atrof muhit (tabiat,atrofdagi

predmetlar, kishilar, ularning mehnatlarni kuzatish, uni o'rganish jarayonida o'quvchi nutqi ustida ishlash, bolani turli bilimlar bilan boyitish nutqni mazmunli qilishning eng asosiy vositalaridir.

O'quvchining nutqini o'sirishda doim tafakkurga asoslanish zarur. O'quvchining diqqat kuzatishi, tushinib olishga harakat qilishi, esda qoldirishi va kuzatishlarini analiz qilish bilan, turlarga ajratish, umumlashtirish, sestemalashtirish tushuntirish va isbotlash bilan bog'liq holda olib boorish tafakkurga asoslangan holda nutq o'stirishni ta'minlaydi.

O'quvchi uchun o'qiganlarini rejasiz so'zlab berish oson. Lekin o'qituvchi uni o'z hikoyasining rejasini tuzib olishga, o'qigan tekstini qismlarga b'lishga va har bir qismga sarlavha topishga o'rgatish, uni ma'lum izchillikda bayon qilishga odatlantirmog'i lozim. O'quvchilarning nutqi va fikrlash qobiliyatini o'stirish bilan birga, ularning yozma nutqini o'stirishga ham, o'z fikrlarini saviyalariga mos ravishda savodli yoza olishlariga ham alohida e'tibor berish talab etiladi. Yozma ish o'tkazishdan oldin o'qituvchi : 1) xatoning oldini olish uchun taxminiy orfografik tayyorgarlik o'tkazish; 2) o'quvchining lug'atlardan foydalana olish qobiliyatini o'stirish; 3) ijodiy yozma ishlarni asta-sekin murakkablashtirib bo'ladi. Shunday qilib o'quvchilarni og'zaki va yozma nutqlari quyidagi talablarga javob bermog' lozim.

1. Nutq eng avval mazmunli bo'lish shart. Bola so'zlayotgan narsasi, voqeasi, predmeti haqida aniq tushunchaga ega bo'lmay, ular haqida so'zlashga yo'l qo'ymaslik lozim, chunki nutqdagi eng katta kamchilik uning ma'nosizligi, so'zlarning ma'nosini bilmay turib qo'llashdir.

2. Nutq mantiqan to'g'ri bo'lishi, ya'ni fikr izchil bayon etilishi kerak. Fikrni izchil bayon etish o'qituvchi tomonidan berilgan yoki o'quvchi o'zi tuzgan reja asosida bayon etish demakdir. Bayon etishda hamma gap bir-biriga mazmunan bog'langan bo'lishi, ayrim asosiy voqea-hodisalar haqidagi fikrlar tushirib qoldirmasligi, ba'zi narsalarning takrorlanmasligiga, keying fikrlar oldingisidan davomi bo'lishiga alohida e'tibor beriladi.

3. Nutq tushunarli bo'lmog'i , uni hamma birdek , hech qiyinchiliksiz tushuna olishi lozim. Nutqning tushunarli bo'lishi uning qilinishga, gaplar qanchalik to'g'ri tuzilganligiga bog'liq.

4. Nutq aniq bo'lmog'i , bola o'zini o'rab turgan hayot-muhit, tasvirini to'g'ri, o'qigan narsasining mazmunini aniq tushuntira olishi kerak. Boshlang'ich sinflarda o'qitishning vazifasi bolani o'z , taassuroti va fikrini oddiy so'zlar bilan to'g'ri ifodalay olishga o'rgatishdan iboratdir.

1.2. Boshlanishli nutqni o'istirishda yozma ishlarning o'rni.

Bog'lanishli nutq tugallangan mazmunni ifodalaydigan mantiqiy va grammatik qoidalar asosida tuzilgan mustaqil va o'zaro bog'langan ma'noli qismlarga bo'linadigan nutqdir. Maktab sharoitida bog'lanishli nutq birligi o'qituvchi bergan savollariga o'quvchilarning keng, mukammal og'zaki javobi , yozma bayon va insholari hisoblanadi.

Insho – ijodiy ish. Ijodiy ishning eng yuqori shakli bo'lgan inshoga maktablarda alohida ahamiyat berishadi. Barcha nutqqa oid mashqlar ma'lum ma'noda inshoga bo'y sunadi.

Insho 1-sinfda kichik og'zaki axborot va emasional hikoyadan boshlanib, o'z fikrini ifodalashga o'quvchi shaxsining kamol topishiga xizmat qiladigan, ta'limiy- tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan jiddiy rejali ishga aylanadi. Insho shaxsini shakllantirishda foydali vosita bo'lib, his-hayajon uyg'otadi, aqliy mustaqillikga , fikrlashga , ko'rgan kechirganlari va o'zlashtirganlarini baholashga o'rgatadi, kuzatuvchanlikni o'istiradi, voqea – hodisalar o'rtasidagi sabab natija bog'lanishini topishga , ularni qiyoslashga xulosa chiqarishga o'rgatadi. Insho fikrni tartibga soladi, o'quvchilarda o'ziga , o'z kuchiga va imkoniyatiga ishonch to'g'iradi. [14.57]

Insho –ijod ishi . U o'quvchilardan faollik , qiziqish fikr bildirishni, talab qiladi. Material tayyorlash uni tartibga solish, insho va rejasi haqida o'ylash mantiqiy bog'lanishini belgilash, so'z. So'z birikmasi tanlash, gap tuzish va uni o'zaro bog'lash, imloni tekshirish, bu barcha ishlar o'quvchidan aqliy kuchni to'la ishga solish bilan birga, o'z ma'naviy faoliyatini boshqarish kunikmasini talab etadi. Inshoda til nazariyasi nutq tajribasi bilan qo'shiladi. O'quvchi inshoni sevadi, u mustaqil , ijodiy xarakterda bo'lgani uchun ham sevadi.

Og'zaki va yozma inshoga o'rgatish jarayonida o'quvchilarda mavzuni tushinish va yoritish, material to'plash, uni tartiblash, rejani tuzish va reja asosida yozish, mazmunga mos bo'lgan til vositalaridan foydalanish ,

yozgan inshosini takomillashtirish ko'nikmalari hosil qilinadi. Bundan tashqari, inshoni yozishda matnni qismlarga bo'lish, xat boshidan boshlash, hoshiyaga, imlo va xusnixat qoidalariga rioya qilish kabi talablarga amal qilinadi.

Insho materiali manbaga ko'ra uning turiga bo'linadi.

1. O'quvchilarning o'zi ko'rgan – bilganlari , eshitganlari haqidagi, yengi mehnat, kuzatishlar, sayohatlar o'yinlar, o'z tajribasi asosidagi insho.

2. Kitob materiali , rasmlar, film, o'qitevchi hikoyasi va boshqa manbalar asosidagi insho.

3. Turli materialdan foydalaniladigan insho. [14.39]

Janrga ko'ra hikoya, tasvir, muhokama tarzidagi inshoga bo'linadi.(3)Boshlang'ich sinflarda yuqorida ko'rsatilgan barcha turlardagi insholar o'rgatiladi. Ammo metodik adabiyotlarda, maktab “ona tili” darsligida ko'proq rasmlar asosida va kuzatishlar asosida insho yozish berilgan.(4)

1.3. Adabiy asarlarni qayta hikoya qilish va bog'lanishli nutq

Qayta hikoya qilish — hikoya qilishning birinchi turi hisoblanadi. Qayta hikoya qilish tinglangan badiiy asarlarni ma'noli og'zaki nutqda takroriy aytishdir. Qayta hikoya qilish o'quvchilar badiiy nutqining rivojlanishiga, emotsional va obrazli so'zlarni tanlashga o'rgatadi, jonli so'zni egallashga yordam beradi, asarni tinglay bilish, uning mazmunini tushunish ko'nikmasini o'sti-radi, ularni bayon qilishdagi izchillikni, muallifning ifoda usulini eslab qolishga, asarni tushunib, jamoa oldida og'zaki aytib bera olish malakasini shakllantiradi.

Qayta hikoya qilishga o'rgatish samarali bo'lishi uchun, eng avvalo, qayta hikoya qilish uchun matnlarni to'g'ri tanlash lozim.

Har bir asar o'quvchilarda jamiyatimiz uchun zarur bo'lgan sifatlarni tarbiyalashi va rivojlantirishi kerak. Qayta hikoya qilish uchun asar tanlanganda quyidagi talablarga amal qilish kerak: yuqori badiiy qimmatga, g'oyaviy-mantiqiy yo'nalishga ega bo'lishi, jo'shqinligi, fikrning yangiligi va bayonning obrazliligi, voqealarning ketma-ketliligi, mazmunining qiziqarliligi. Shu bilan bir qatorda, badiiy asarning hajmi va uning o'quvchi yoshiga mos kelishini ham hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu talablarga xalq ertaklari, hajmi uncha katta bo'lmagan hikoyalar misol bo'la olishi mumkin. Shuningdek, dasturda o'quvchilarning qayta hikoyalarga bir qancha talablar qo'yilgan:

- 1) ma'nosiga tushungan holda, ya'ni matnni to'liq tushunib hikoya qilish;
- 2) asarni to'liq bayon etish, ya'ni asardagi muhim joylarini tashlab ketmasdan bayon etish;
- 3) izchillik (ketma-ketlik) bilan hikoya qilish;
- 4) muallif matnidagi lug'atlardan va iboralardan foydalanish, ayrim so'zlarni ularning sinonimlari bilan almashtirish;
- 5) to'g'ri ohangdan foydalanish, uzoq pauzalarning bo'lmasligi;

6) og'zagi nutq madaniyatiga e'tibor berish: qayta hikoya qilayotganda gavdani to'g'ri tutish, tinch turish, tinglovchilarga murojaat qilish, nutqning intonatsion ma'nodorligidan (ifodalili-gidan) foydalanish, yetarlicha baland ovozda tovushlarni aniq talaffuz etish.

Ushbu talablarning barchasi bir-biri bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lib, bulardan birortasini ham e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas.

Qayta hikoya qilishga o'rgatish usullari

Ma'lumki, qayta hikoya qilish monolog nutqni shakllan-tirishda eng birinchi bosqich hisoblanadi. Shuning uchun har bir o'quvchi qayta hikoya qilishni yaxshi egallab olishi shart. Buning uchun har xil usullardan foydalaniladi. Bular quyidagilar:

1. O'qituvchining o'quvchi bilan birga qayta hikoya qilishi.

O'qituvchi bu usuldan qayta hikoya qilishga o'rgatishning

dastlabki bosqichida, ayniqsa, hikoya qilib bera olmaydigan o'quvchilar bilan ishlashda keng foydalanishi kerak.

Qayta hikoya qilish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga sezdirmagan holda gavdasini to'g'rilashi, imo-ishora, ko'z qarashi bilan dalda berishi mumkin, mashg'ulotning oxirida esa, albatta, o'quvchini maqtash kerak: „Yasha, endi boshqa o'quvchilarga hikoya qilish yengil bo'ladi. Faqat keyingi safar balandroq ovozda hikoya qilgin“.

2. Qayta hikoyani takrorlash.

Bu usuldan ko'proq o'rta va katta sinflarda foydalaniladi. Bu o'quvchi uchun ancha murakkab bo'lgan usuldir, chunki u o'qituvchining hikoyasiga alohida luqma tashlash (gap qistirish) bilan birga, to'liq jummalarni ham takrorlashiga to'g'ri keladi.

3. So'z va jummalarni aytib turish.

Bu usul qayta hikoya qilishning ravonligini, izchilligini ta'minlaydi, uzoq pauza qilishga yo'l qo'ymaydi. Bu usuldan ko'proq o'quvchi asar matnining ayrim joylarini esdan chiqarganda foydalaniladi.

Agar o'quvchi juda yaxshi hikoya qilsa-yu, biroq nutq sur'ati juda sekin bo'lsa, o'qituvchi pauza vaqtida sabr-toqat bilan hikoyaning davomini kuzatishi: o'quvchining gavda holatiga e'tibor bilan qarashi, dalda berishi orqali o'quvchi diqqatini to'plashi kerak.

Agar o'quvchi hikoya qilayotgan vaqtda tebranib (chayqalib) tursa, boshini egsa, qo'li bilan ortiqcha harakatlarni qilsa, uning hikoyasini bo'lib tanbeh berish yaramaydi, balki bunday hollarda imo-ishora, ko'z qarashi bilan uning xatosini, kamchiligini tuzatishi, hikoya qilib bergandan keyin esa hammaga eshitilarli qilib: „Hikoya qilayotganingda tinch turishing, boshingni pastga egmasdan, o'rtoqlaringga qarab turishing kerak, axir ular sening hikoyangni tinglashadi-ku“, deb aytishi kerak. O'qituvchi o'quvchining bu nuqsonlarini kundalikka belgilab qo'ysa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki keyingi qayta hikoya qilib berish mashg'ulotidan oldin yana bir marta o'quvchini ogohlantirishda bundan foydalanadi.

O'qituvchi aytib turish orqali, o'quvchini qayta hikoya qilayotganida yo'l qo'ygan grammatik xatolarni to'g'rileydi. Bu usul qayta hikoya qilishga o'rgatishning keyingi bosqichlarida ham qo'llaniladi.

4. Savollar berish.

Bu usul keng tarqalgan bo'lib, u muqaddima (kirish) suhbatida va mashg'ulot jarayonida qo'llaniladi. Qayta hikoya qilish mashg'ulotida foydalaniladigan savollarni shartli ravishda ishlatilishiga va maqsadiga qarab bir qancha turkumga ajratish mumkin. Hikoya qilolmaydigan o'quvchilarga qayta hikoya qilishni boshlagunga qadar yordamchi savollar berish mumkin, bu hikoyani boshlashga yordam beradi, masalan: „Sen nima haqida hikoya qilasan, ola quyon to'g'risidami? Mayli, kel boshlaymiz. Kunlardan bir kuni jikkakkina ola quyon sheriklariga...". Yoki: „Turna Tulkini o'zi bilan olib, osmonga ko'tarilibdi va unga nima debdi? Yerni ko'ryapsanmi? Mana shu Turnaning aytgan gaplarini, Tulkinining esa javobini aytib bering... Ha, mushtumday... Bu yog'ini o'zing davom et".

O'quvchi qayta hikoya qilib bergandan keyin, albatta, savol berishdan foydalanish mumkin. Bu asar mazmunini o'quvchi qay darajada tushunganini aniqlashga yordam beradi, matnni qayta hikoya qilayotgan vaqtda tashlab ketilgan joylarini tiklashga yordam beradi.

Ayrim hollarda qayta hikoya qilishdan keyin qahramonlarning fe'l-atvori yoki ularning ifodali nutqi haqida savol berish mumkin.

Qayta hikoya qilish o'rtasida uncha katta bo'lmagan mashqlar o'tkazish yoki ko'rsatma berishdan foydalanish mumkin. Shu-ningdek, asar matnining ayrim joylarini yana bir marta takrorlash usulini qo'llash mumkin.

5. Rag'batlantirish.

Qayta hikoya qilish jarayonida o'qituvchi o'quvchini jilmayish, boshini qimirlatish (tasdiqlash), qisqa so'z aytish („Yasha", „Barakalla") bilan rag'batlantiradi.

Qayta hikoya qilib bergandan so'ng o'quvchini maqtaydi. Bunda qayta hikoya qilishning biror ijobiy sifatini ta'kidlab o'tadi.

6. Qismlar bo'yicha qayta hikoya qilish.

Bu usul o'quvchilar idrokining qimmatini yo'qotmaydi, chunki qayta hikoya qilish uchun o'quvchilarga mazmuni tanish bo'lgan asar tanlanadi. Qismlar bo'yicha qayta hikoya qilish usulidan foydalanib, mashg'ulotni tashkil etish jarayoni o'quvchilardan kun davomida so'rash imkonini yaratib beradi.

7. Rollarga bo'lib qayta hikoya qilish.

Bu usul nutqning ma'nodorligini (ifodaliligini) shakllan-tirishga yordam beradi. O'qituvchi tomonidan ishtirok etuvchi shaxslar xarakterining izohlanishi o'quvchilar nutqining oydinla-shishiga, diqqatining faollashishiga katta ta'sir etadi. Rollarga bo'lib qayta hikoya qilish o'rta sinfdan boshlab qo'llaniladi. Bu usuldan mashg'ulotning oxirida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

8. O'yin usuli (dramalashtirilgan o'yin).

Bu usulda personajlarning (ishtirok etuvchilarning) luqma tashlashlari harakatlar bilan boshqariladi: o'quvchilar imo-ishoradan, hayvonlarning ovozlari taqlid qilishdan va boshqalardan keng foydalanadilar, biroq o'yin uchun hech qanday niqoblar, dekoratsiyalar talab etilmaydi. O'qituvchi avval o'zi muallif nomidan gapiradi, so'ngra o'quvchi gapiradi. Dastlab rolni ijro etish uchun nutqi bo'sh rivojlangan o'quvchilar chiqariladi. Dramalashtirilgan o'yin 5 daqiqa davom etadi. Turli yosh sinflarida qayta hikoya qilib berishga o'rgatish mashg'ulotining tuzilishi (o'tkazish uslubiyoti) har xil bo'ladi.

Qayta hikoya qilish uchun tanlangan matn o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi kerak.

Qayta hikoya qilish mashg'ulotlari har bir yosh sinfining shaxsiy xususiyatlarini, ularning qayta hikoya qilish qobiliyatlarini hisobga olgan holda tuziladi.

Bu yoshdagi o'quvchilarni qayta hikoya qilishga o'rgatish ularga tanish bo'lgan ertaklarni („Bo'g'irsoq", „Sholg'om", „Bo'ri bilan echki", „Ochko'z it")

takrorlashdan boshlanadi. O'qituvchi kichkintoy o'quvchilarni qayta hikoya qilishga o'rgatishda quyidagi usuldan foydalanadi. O'quvchilar o'qituvchining takroriy hikoyasidagi bitta-ikkita so'zni yoki to'liq gapni takrorlaydilar:

—Choi bilan kampir...

—Yashashar ekan.

—Bir kuni chol...

—Sholg'om ekibdi.

So'ngra o'quvchilar sekin-asta savollar yordamida qayta hikoya qilishga o'rgana boshlaydilar. Savollar voqealar ketma-ketligini belgilashga, ishtirok etuvchilarning nomini aytishga qaratilgan bo'ladi:

—Bo'g'irsoq kimni uchratdi?

—Quyonna.

Agar o'quvchi ertakning boshlanishini yaxshi eslab qolgan bo'lsa, u holda uni mustaqil hikoya qilib bera oladi. So'ngra qayta hikoya qilish jarayonida o'quvchi qiynalsa, o'qituvchi yordamlashadi, ya'ni matnni esiga tushirishdan foydalaniladi, bu ertak mazmunini oson takrorlashga yordam beradi.

Qisqa xalq ertaklarini qayta hikoya qilishdan so'ng kichik hajmdagi hikoyalarni qayta hikoya qilishga o'tishi mumkin (Mirmuhsin. „Olxo'ri“, „Tosh“).

Mashg'ulotda asarga ishlangan illustratsiyalar ko'rsatiladi. Ko'rsatish savollar, ko'rsatmalar berish bilan birga qo'shib olib boriladi. Illustratsiyalarni asarni o'qib berishdan avval yoki o'qib bergandan keyin ko'rsatgan ma'qul. O'qituvchi shunday deydi: „Hozir men sizlarga rasmlarni ko'rsataman, so'ngra hikoya o'qib beraman" yoki „Hozir hikoyani o'qib beraman, so'ng rasmlarni ko'rsataman".

O'rta sinfda o'quvchilarni qayta hikoya qilishga o'rgatishda ancha murakkab bo'lgan vazifalar hal etiladi: o'quvchilarni kichik hajmli va tanish bo'lgan ertak va hikoyalarni hikoya qilib berishga o'rgatib qolmasdan, balki asar qahramonlarining gaplarini ifodali qilib bayon etishga, boshqa o'quvchilarning qayta hikoya qilishlarini diqqat bilan tinglashga va matnga taalluqli bo'lmagan

jumlalarni topishga o'rgatadi. Ushbu sinfda o'quvchilar butun yil davomida 8 — 10 ta adabiy matnni (o'zbek ertaklaridan „Tulki bilan Turna“, „Maqtanchoq quyon“, „Fil va xo'roz“, „Ikki o'rtoq“, A. Oripovning „Bobo va nabira“ she'rining mazmunini qayta hikoya qiladilar.

O'rta sinf o'quvchilariga qayta hikoya qilishlari uchun tavsiya etilgan asarlar mavzusi, mazmuni va shakli jihatdan katta farq qiladi. Shuning uchun o'rta sinf o'quvchilarini qayta hikoya qilishga o'rgatishdagi muhim vazifa — bu ularga asarning mantiqiy bog'lanishini, uning mazmunini tushunib olishga yordam berishdir. Bunga asarni dastlabki o'qishdan so'ng o'tkaziladigan suhbat orqali erishish mumkin. Bunday suhbatda o'qituvchining savol-lari asosiy metodik usul bo'lib hisoblanadi.

Badiiy asarlar yuzasidan savollar berilishi mumkin:

1) asar mazmunini tushunib olishga yordam beruvchi;

2) voqeaning ketma-ketligini esga tushirishga yordam beruvchi.

Shuningdek, asar o'qib berilgandan keyingi suhbat o'quvchi

nutqidagi lug'at boyligini aniqlash va faollashtirish, qahramon-larning ovozlari ni ifodali bayon etishga ta'sir etish kabilarni amalga oshirishga yordam beradi.

2-bob. Kuzatishlar asosida bog'lanishli nutqni o'stirish.

2.1.Kuzatishlar asosida bog'lanishli nutqni o'stirish.

Boshlang'ich sinf dasturlarida o'quvchilarga beriladigan grammatik bilim va ko'nikma nutqqa hamda imloga oid malakalar o'quvchilar tomonidan aytilgan so'z va ayrim gaplardagina emas, balki mantiqiy fikrlangan hamda kengaytirilgan misollarda, bayon va insholarda qo'llasagina, to'liq va puxta o'zlashtirilgan hisoblanadi. Demak, darslikda ham bu ishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

2-sinf "ona tili" darsligidagi (5) 150 – mashq kuzatishlar asosida og'zaki hikoya tuzishga qaratilgan. Unda mashqning ikkinchi topshirig'I qilib quyidagilar beriladi.

Sizlar maktabingiz va uyingizda yangi yilni qanday kutib olganingiz haqida hikoya qilib berishga tayyorlaning.

Topshiriq berilgani yaxshi. Ammo u qachon bajarilishi ko'rsatilmagan.

3-sinf "Ona tili" darsligida(6) kuzatish asosida insho uchun quyidagi mashqlar berilgan.

11-mashq "Uy ishlariga yordam" mavzusida 5-6 ta gapdan iborat mashq toping. Mashq uyda bajarishga mo'ljallangan.

52 – mashq ustozlar va murabbiylar haqida bilganlaringizni gapirib bering.

186-mashq. Savollarga javob bering?

- 1.Siz qanday kitoblarni sevib o'qiysiz?
2. O'qigan kitoblaringiz sizni nimaga o'rgatdi va qanday inson bo'lishga da'vat qildi? Shular haqida so'lab bering.

Mashq og'zaki bajarishga mo'ljallangan. Ijobiy tomoni shundaki, hikoya tuzish uchun reja berilgan. Bolalar mana shu reja asosida hikoya tuzishlari mumkin.

199-mashq savollarga javob bering?

- 1.Bu qaysi fasl?
- 2.Bu faslda tabiat o'zgarishlarini kuzatganmisiz?

3.O'lkamizga qaysi qo'shlar uchib keladi?

Bu mashqni tom manodagi insho deyishi qiyin. Berilgan savollar mashqni yoritish uchun imkon beradi. 299-mashq. Savollarga javob bering.

1. Siz 8-mart xotin-qizlar bayrami munosabati bilan kimlarni tabriklaysiz?

2. Siz bu bayramni qanday kutib olasiz?

4-sinf "ona tili" (7) darsligida kuzatish asosida insho yozish uchun quyidagi mashqlar berilgan.

81 – mashq "Kuzda" mavzusida insho yozish uchun tayyorlaning. Insho uchun kerakli materialni to'plashda quyidagilarga e'tibor bering.

1. Ob-havodagi o'zgarishlar.

2. Tabiatdagi o'zgarishlar.

3. Kuzda dehqon va bog'bonlarning yumishlari.

Mashq kuzatishlar asosida fikr bayon qilish aniq kursatilgan mashqdir.81-90 mashqlar metodik adabiyotlarda ko'rsatilgandek rejimda berilgan. Demak , 2-4- sinf "Ona tili " darsliklarida kuzatish asosida insho yozish ma'lum izchillikda, metodik jihatdan to'g'ri yoritilmagan. Faqat 4- sinf darsligida kuzatish materialli va to'plangan materialni tartibli bayon qilishga yordam beradigan reja berilgan. Bigacha 3-sinf darsligida qushlarning hayoti , fasllar haqidagi mavzularni tavsiya qilish mumkin. 4-sinfda esa "Issiqxona" atoqli kishilar bilan uchrashuvlar haqida biron ab'tektga sayohat , ya'ni metro yoki kutubxonaga sayohat jarayonida kuzatganlari asosida insho yozishni taklif etish mumkin.

2.2. I-II- sinflarda kuzatishlar asosida bog'lanishli nutqini o'stirish.

Bu sinfda insho hikoya tarzida tuziladi. Inshoga asta-sekin tasvirlash va muhokama ifodalaydigan 2-3 gapni qo'shib borish tavsiya qilinadi.

O'quvchilar ikkinchi sinfda bir yil davomida o'z fikrlarini bog'langan holda hikoya qilishni, ya'ni insho ustida ishlash tajribalarini egallay boradilar. Insho uchun o'zlarining shaxsiy tajribalarini asosga olinadi. Bolalar o'z ko'rganlari, bajargan ishlari, o'yinlarini o'z saviyalariga mos hikoya qilib beradilar. Bunda ular hikoyani qanday boshlashni, uni qanday davom ettirish va tugatishni, qanday xulosalashni amaliy o'rganadilar. Bularning hammasi og'zaki ravishda bajariladi. Yozma inshoga o'rgatish 2- sinfdan boshlanadi. Bunda bolalar o'zlarining o'yinlari, mehnatlari haqida qiziqarli fikrlar yuritib, kollektiv bo'lib, o'qituvchi rahbarligida reja tuzishni o'rganadilar. Reja vazifasini o'qituvchi savollari, ya'ni so'roq gaplar tarzidagi reja bajaradi, Boshlang'ich sinflarda 3-5 punktli reja tavsiya qilinadi. [12.49]

Reja tuzishga o'rgatishda oldin nima haqida so'zlashi, keyin uni qanday davom ettirish, undan so'ng nimalar haqida aytish, nihoyat hikoyani qanday tugatish kerakligi tushuntiriladi.

Reja ko'pincha insho yozishdan oldin unga tayyorgarlik vaqtida tuziladi.

Insho ta'limiy harakterda bo'lib, o'qituvchining rahbarligida bajariladi. Insho yozish kunikmalaribolalarda quyidagicha hosil qilinadi: O'qituvchi bolalar bilan tabiatni kuzatishlari, o'yinlari, tabiat qo'yniga qilingan sayrlari haqida suhbat o'tkazishi, bolalarni shu suhbatni yozma ravishda ifodalashga tayyorlaydi.

O'quv yilining birinchi kunlaridayoq o'qituvchi tabiatni kuzatib borishi , tabiat kalendarini tuzishni va uni muntazam to'ldirib borishni tashkil qiladi, uni doimo nazorat qilib boradi. Shu kuzatishlardan o'quvchilar olgan taassurotlar bevosita savollar asosida insho yozish darslariga asos qilib ilinadi.

Masalan: Bugun ob-havo qanday? Osmon qanday? Rangda? Shamol esyaptimi? Kuchlimo yo kuchsizmi? Yomg'ir yog'ayaptimi? Bugun kun sovuqmi yoki issiqmi?

Keyingi darslarda bolalar bugungi ob-havo ma'lumotlariga kechagi kungisini ham qo'shib so'zlaydilar.

O'quvchilar o'z fikrlarini aytish bilan o'rtoqlarining javoblarini to'ldirib boradilar va barcha javoblar o'qituvchi yordamida birlashtiriladi. Natijada so'roq gaplar tarzida tuzilgan quyidagi reja asosida hikoya insho tuzadilar va ma'lum tayyorgarlikdan so'ng uni yozadilar:

Reja:

- 1Bugun havo qanday?
- 2.Osmon qanday?
- 3.Qanday shamol esyapti?
- 4.Nima yog'ayapti?
5. Kun qanday?

Bugun havo ochiq. Osmon ham –ko'k yoqimli, mayin,shamol esyapti. Yomg'ir yog'ayapti. Kun issiq. Kuzda bolalar maktab bog'iga yoki yaqin atrofdagi istirohat bog'iga dayrga chiqadilar. U yerda tabiatning kuzgi o'zgarishlarini, asosan xazonrezgilikni kuzatadilar. O'qituvchining savollarga javob berish bilan bolalar bog'da kuzatganlarini so'zlab beradilar. O'qituvchilar , o'quvchilarning javoblarini diqqat bilan kuzatib, so'zlarning kerakli o'rinlarda ishlatilishi, gapni to'g'ri tuzilishiga ahamiyat beradi, bolalarning jonli nutqiga o'zgartirish va to'ldirishlar kiritadi. Suhbat taxminan quyidagicha olib boriladi.

Hozir qanday fasl? Yozda ob-havo qanday bo'ladi? Hozir kuz faslida ob-havo qanday bo'lyapdi? Bog'ga nimalar ekishgan? Polizda nimalar pishib yetilgan?

O'quvchilar shu savollarga javob beradilar, butun sinf o'quvchilarning bergan javoblaridan taxminan shunday bog'lanishli nutq hikoya hosil bo'ladi.

Hozir kuz fasli. Yozda kun juda issiq bo'ladi. Hozir esa kunlar ancha soviy boshladi. Bog'da mevalar g'arq pishgan. Polizda qovun-tarvuzlar pishib yetilgan.

Bunday hikoyani kuz faslining birinchi kunlaridan tuzdirish mumkin. Kuz faslining oxirida xazonrezgilikni kuzatib, o'qituvchi boshchiligida uni yozma ravishda ifodalaydilar.

O'qituvchi bolalar javoblarini doimo diqqat bilan tinglab borishi, ularni ifodali va izchil fikrlashga o'rgatib borishi lozim. Ishning asosiy maqsadlaridan bolalarni faqat voqea hodisalarni kuzatishgagina emas, balki o'z fikrlarini aniq va lo'nda bayon etishga o'rgatishdir.

O'quvchilar uchun notanish bo'lgan, yangi so'zlarni o'qituvchi doskaga reja yoniga yozib boradi. Bu so'zlarni izohlab, ma'nosini tushuntirib beradi. Zero bu so'zlar o'quv ishlarining aktiv lug'atidan joy olsin.

Insho qanday mavzuda yozdirilmasin, uning samarali chiqishida inshoga tayyorgarlik bosqichi katta rol o'ynaydi.

Inshoga tayyorgarlikni o'qituvchi boshqaradi, bunga o'quvchilarning ishtirok ettiradi, ularning uta aktivligi va mustaqilligiga erishadi. Tayyorgarlik deganda , birinchidan, o'quvchilarda nimanidir tasvirlashga , hikoya qilishga talab uyg'otadigan vaziyat yaratish, ikkinchidan, insho uchun yetarli bo'lgan zarur material yig'ish, uchinchidan, mavzuga oid, uni yoritishga mos bo'lgan til vositalarini tanlash tushuniladi.

Tayyorgarlik ishlari inshi yozishdan bir necha kun ilgari boshlanadi, darsdan tashqari vaqtlarda va boshqa darslar jarayonida ham olib boriladi.

Bu ishlarning barchasi osondan qiyinga , soddadan murakkabga prinsipiga asoslangan mashqlarni bajarish bilan olib boriladi. Shuning uchun bu sinfda yozma inshoda n oldin turli ta'limiy og'zaki mashqlar , ya'ni bir mavzuga oid bir necha gap tuzish, raqamli rasmlar bir mavzuga doir bir necha rasm yordamida gaplarning o'zni almashtirib borilgan matnni qayta tuzish, bir mavzuga doirsavollarga og'zaki javob berish, sujetli bir rasimga qarab gaplar

tuzish, o'qilgan hikoyaga o'xshash hikoya tuzish mashqlari o'tkaziladi. Inshoga tayyorlash mashqlari savod o'rgatish davridayoq boshlanib, o'quv yili davomida o'tkazib boriladi.

Masalan syujetli bir rasm asosida bir necha gaplar tuzish va yozish mashqlari ta'limiy xarakterga ega. Bu mashqlarga matn mazmuniga moslab chizilgan illyustrasiyalar yoki syujetli rasmlar material bo'la oladi.

O'qituvchi o'quvchilarga kitobdan yoki tayyor ishlangan rasmni diqqat bilan kuzatishni va shu kuzatilganlari asosida so'zlab berishni topshiradi, Masalan "Tulki va Turna" masal ertagida bevosita bog'langan rasmlar bilan ishlash o'qilgan asar mazmunini chuqur tushunishga va ongli o'zlashtirishga yordam beradi. Shu rasm beriladi. Bu rasm 2 seriyali, lekin uni 4 ta seriyaga bo'lib, tasvirlansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'quvchi rasmlar seriyali asosida o'zi istaganicha gapiradi, o'qituvchining savollari uning hikoyasini tartibga solib turadi. Rasmlar seriyasida faqat bitta voqea ko'rsatilgan bo'ladi.

Rasm asosida o'qituvchi quyidagi savollarini beradi: Turna kimnikiga mehmonga keldi? Turna anima qildi? Tulki turnaga nima deydi? Turna nima uchun ovqat yeyolmadi? Tulki bu yerda qanday ko'rsatilgan.

Savollar shunday tuziladiki, ular o'quvchilarni ertakning mazmunini so'zlashgagina emas, balki ertak qahramonlarining xatti-harakatlarini baholashga, "Tulki-ayyor" degan xulosaga kelishga o'rgatadi. Eng muhimi bunday mashqlar o'quvchilar nitqini o'stirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, kuzatishlar asosida yozdiriladigan inshoga tayyorlab boradi.

Tabiatni kuzatish, tabiat kalendarini to'ldirish qish faslida ham davom ettiriladi. Bolalar kunlar soviy boshlanganini, birinchi qorni, ariqlarda, ko'l va daryolarda, suvning muzlaganini, kuchli shamol, boronlarni kuzatib boradilar. Qish kunlari insho mavzulari "Birinchi qor" "Qorbobo yasadik" "Qor bo'ron" kabi nomlanishi mumkin.

Yangi yil bayramidan so'ng odatda archa bayrami, yangi yil sovg'alari haqida hikoyalar yozadilar. Yanvar oyining ikkinchi yarmida esa "Qor bo'ron o'yini" mavzusidagi inshoga tayyorgarlik kuriladi.

Har bir insho yozish jarayoni 3 bosqichdan iborat bo'lishi lozim:

1. Inshoni yozishga tayyorgarlik.
2. Inshoni yozish davri.
3. O'qituvchi tekshirgan insholarni sinfda o'quvchilar bilan tahlil qilish.

Biz mazkur bitiruv malakaviy ishimizni bajarish uchun Surxandaryo viloyatining Denov shahridagi 34- o'rta maktabning boshlang'ich sinflarida o'tkazdik. Men shu maktabda tajriba sifatida ochilgan 2 «A» sinfida tajribalar o'tkazdik. Shu sinfda o'tkazilgan darslarni kuzatdim va sinov darslarini o'tdim. Bu sinfga ma'lum pedagogik, psixologik suhbat va sinovlardan o'tgan iqtidorli o'quvchilar qabul qilingan bo'lib, ular 3-sinfni ikki yilda tugatadilar.

Sinf o'quvchilari qobiliyatli, mustaqil va nutqi rivojlangan Ularda bayon yozish ko'nikmalari ancha yaxshi hosil qilingan bo'lib, insho yozishga tayyorgarlik ishlari boshlab yuborilgan edi.

O'tkazilgan tajribalar qish faslining fevral oyiga to'g'ri keldi. Biz shu sinfda o'quvchilarning kuzatishlari, o'yinlari asosida insho yozish darsini o'tkazdik. Inshoga tayyorgarlik ishlari bir hafta oldin boshlanadi. Inshoga "Qish o'yinlar" mavzusini tanlab oldik. Insho yozish darsini shu sinf o'qituvchi Ismoilova Shoiri opa o'tkazdilar. Insho yozish darsi, unga tayyorgarlik ishlari quyidagi izchillikda olib borildi.

Qishki o'yinlar.

Maqsad: Bolalarni voqea – hodisalarni chuqur his etishga yordam berish, izchil fikrlashga o'rgatish, tilga va ijodga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish.

Inshoga tayyorgarlik: Tayyorgarlik ishlari insho yozishdan bir necha kun ilgari boshlanadi:

1. O'qituvchi o'quvchilarni insho yozishdan bir necha kun ilgari maktab maydonchasiga oldindan belgilangan, o'zi kuzatib, mo'ljallab qo'yilgan

ob'ektga sayrga olib boradi. Sayr iloji bo'lsa qor yog'ib turgan kuni o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

2.O'quvchilarga atrofdagi tabiatni diqqat bilan kuzatish kuni taklif etiladi. Shu kuzatishlar yuzasidan tayyorlangan savollar beriladi. O'qituvchi savolga berilgan javoblar insho matnini tashkil etishi, o'qituvchining umumlashtiruvchi gaplari esa inshoning rejasini keltirib chiqarishi kerak bo'ladi. Masalan:

Bolalar nqaysi fasl keldi?

Qish fasli keldi?

To'g'ri diqqat qilib kuzatib boring.

Shu kuzatishlaringiz asosida biz insho yozamiz. Bolalar , qish faslining qanday belgilarini bilasiz? Qish kelishi bilan kunlar qanday bo'ladi?

Kunlar sovib ketadi

Kunlar sovib ketganda nima yog'adi?

Qor og'adi.

Juda to'g'ri. Hozir ham qor yog'ayapdi.

Demak , qish fasli keldi. Kunlar sovib ketdi. Qor yog'di – bular hammasi qishning nimalari ekan?

Qishning belgilari.

Juda to'g'ri. Siz insho yozganingizda rejangizning birinchi punktiga “Qishning belgilari” deb yozamiz.

Diqqat qiling sinfda yozadigan inshoga hozir siz taxminan reja tuzib olishingiz kerak.

O'quvchilarga qor bo'ron o'ynash taklif etiladi.

O'yin tugagach:

Bolalar , qishda qanday o'yinlar o'ynaysiz?

Qor bo'ron o'ynaymiz , kanki, chanada uchamiz, qor odam yasaymiz

Juda to'g'ri, bu qishki o'yinlaringiz?

Qor bo'ron o'ynaymiz.

O'yin vaqtida kim-kimga qor otdi?

Vali Lolaga qor otdi. Lola Valiga qor otdi.....

Juda yaxshi. Hammalaribgiz bir-birlaringizga qor otibsiz. Lekin insho yozayotganda Vali, Lolaga , Lola Valiga qor otganini yozamiz.

Demak, qor bo'ron qachon o'ynaladi?

Qish fasli kelganda.

Qishda o'ynaladigan o'yinlarni nima deb nomladik?

“Qish o'yinlari ” deb?

Rejamizning ikkinchi punktida qishki o'yinlarning qaysinisini yozar ekanmiz?

Qor bo'ron o'yinini.

To'g'ri aytingchi, qor bo'ron so'zi qanday yoziladi. Qo'shibmi yoki alohidami?

Alihida yoziladi. O'quvchilar bilishmasa o'qituvchi tushuntirib o'tadi?

Juda to'g'ri. Qor va bo'ron so'zlari alohida-alohida yoziladi.

Bolalar rejamizning birinchi punkti nima edi?

Ikkinchisichi? Eslatib o'tiladi. O'qituvchi bolalarga qish belgilari, qishki o'yinlar haqidagi suhbatda juda ko'p qo'shimcha savollar berish mumkin. Lekin insho matniga kiruvchi bolalar javoblari alohida e'tibor bilan qayta takrorlanib turishi lozim. Shundagina bolalar yoshiga mos gaplar ajratib olindi. Inshoning keying qismidagi savol-javobni sinfga qaytgach davom ettirish mumkin.

Bolalar, sayr qanday o'tdi?

Sayr qiziqarli, maroqli, zo'r o'tdi.

Xursand bo'ldingizmi?

Hammamiz xursand bo'ldik?

Demak sayr qiziqarli o'tganligi haqida yozish uchun, rejamizning uchinchi qismiga nima deb yozamiz?

“Sayr qiziqarli o'tdi” deb yozamiz. Hammamiz va xursand so'zlarining imlosi ustida ishlaymiz.

Demak , bugungi sayrda biz nimalar qildik?

Qish belgilarini kuzatdik, qor bo'ron o'ynadik...

Shu kuzatishlarni siz inshoga yozasiz. Qani endi inshoga sarlovha toping – chi.

Nima deb nomlaymiz inshoni?

“Qish” “Qishki o’yinlar”, “Qishning belgilari”...

Juda chiroyli sarlovhalar topdibgiz. Biz qishki o’yinlar haqida ko’proq suh,atlashganimiz uchun inshoga “Qishki o’yinlar” deb nom beramiz.

Reja ham tuzib oldik. Necha qismdan iborat ekan?

Uch qismdan iborat.

Qani ketma-ket aytib ko’raylikchi.

1. Qishning belgilari.
2. Qor bo’ron o’yini.
3. Sayr qiziqarli o’tdi.

O’quvchilarga rejani eslashga yordam beriladi. Vaqt bo’lsa shu reja asosida yana bir bor qayta hikoya qilish tavsiy aetiladi. Har bir qismni bittadan o’quvchi qaytadan so’zlab beradi. Natijada taxminan inshining quyidagi matn va rejasi hosil bo’ladi.

Qishki o’yinlar.

Qish fasli keldi. Kunlar sovib ketdi. Kecha qor yog’di. Biz maktab maydonchasiga sayrga chiqdik. Bolalar qor bo’ron o’ynashdi. Vali Lolaga qor otdi. Lola Valiga qor otdi. Sayt maroqli o’tdi. Hammamiz xursand bo’lib qaytdik.

Reja.

- 1.Qishning belgilari.
- 2Qor bo’ron o’yini.
3. Sayr maroqli o’tdi.

Insho yozish darsi.

1. Mavzu. Inshoning vazifasini e’lon qilish, uni o’quvchilar bilan muhokama qilish.
2. Materialni tartibga solish yoki material yigish.
3. Reja tuzish yoki avval tuzilgan rejaga aniqlik kiritish. Doskaga sana, insho va uning sarlavhasi yoziladi.

Bolalar eslab kuringchi sayr vaqtida biz bugungi yozadigan inshoni rejasini tuzib olgandik. Reja necha qismdan iborat edi?

Uchta qismdan iborat edi.

Birinчисini ayting....

Reja esga tushiriladi va doskaga yozib qo'yiladi.

4. Matnni nutqiy tayyorlash.

Demak , bolalar, hozir siz nima yozasiz?

Hozir biz insho yozamiz.

Inshoning sarlavhasi nima ekan?

inshoning nomi "Qishki o'yinlar"

Inshoga siz nechta qismdan iboratreja tuzdingiz? 3 qismdan.

Birinchi qismdagi gapni o'qing.

Qishning belgilari.

Rejaning shu qismi bo'yicha kuzatganlaringizni gapirib bering-chi. Bir o'quvchi turib: "Qish fasli keldi. Kunlab sovib ketdi. Kecha qor yog'di" – deb javob berdi.

Juda yaxshi. Birinchi qismni o'rtog'ingiz nechta gap bilan so'zlab berdi, sanab ko'ringchi.

Uchta gap bilan so'zladi.

Demak , bu qismga 3 ta yozar ekanmiz, ya'ni , qish faslining 3 ta belgisini yozar ekanmiz. Birinchi yozadigan gapingizni "Qish fasli keldi" daftaringizning qayeridan boshlaysiz.

Bolalar bilishmasa , o'qituvchi:

Birinchi gapni xat boshidan boshlab yozasiz.

Daftardagi xoshiyaning yoniga kursatkich va o'rta barmog'ingizni qo'yib turib, nuqta belgilab olsangiz o'sha xat boshudan bo'ladi., kursatadi. Rejaning har qismiga javoblarni yangi xat boshidan boshlab yozasiz. Reja qismlari nechta edi? 3 ta uchala rejaga javoblarni yangi xat boshidan yozsak nechta xat boshi bo'ladi?

3 ta xat boshi bo'ladi. Xat boshini boshqacha qilib abzas deb ataymiz. Demak, xat boshi nechta barmoq kattaligida belgilanar ekan? 2 ta barmoq kattaligida.

Demak, birinchi gap xat boshidan, keying gaplar ketma-ket xoshiyadan boshlab yozib boriladi. Xuddi shunday keying gaplar qismda ham yangi gap qanday harf bilan boshlanadi. Bosh harf bilan boshlanadi.

To'g'ri bosh harf bilan boshlanadi, chunki u boshlovchi harf gap tugagandan keyin oxiriga nima qo'yiladi? Oxiriga nuqta qo'yiladi.

To'g'ri nuqta qo'yish kerak. Chunki u darak gap.

Demak, rejaning birinchi qismini xat boshidan bosh harf bilan boshlab yozib, 3 ta gap bilan tugatamiz.

Ikkinchi qismini ayting.

Qor bo'ron o'yini.

Bu haqida kim gapirib beradi. Biz qayerga bordik?

Bolalar nima o'ynashdi? Kimlar qor otganini gapirishingiz kerak. Shu yulovchi savollarning hammasiga bir o'quvchi turib to'liq javob beradi.

Biz maktab maydonchasiga sayrga chiqdik. Bolalar qor bo'ron o'ynashdi. Vali Lolaga qor otdi. Lozim topilsa, yaxshi so'zlovchi o'quvchiga yana bir bor qayta hikoya qildiriladi.

Yaxshi. Ikkinchi qismda nechta gap yzilar ekan? 4 ta.

Qani birma-bir sanab o'tamiz. Aytib sanaladi.

Birinchi gapni qayerdan boshlab yozamiz? Xat boshidan....

To'g'ri, xat boshidan 3-4 gapda bolalarga qo'yilgan Vali va Lola ismlari qanday harf bilan yoziladi? Bosh harf bilan.

Nima uchun bosh harf bilan boshlab yozuladi?

Kishilarning ismi va familiyasi bosh harf bilan yoziladi.

V. Insho rejasidagi ikkita qismga nimalar yozishni bili, oldingiz. Endi uchinchi qismni ayting-chi.

Sayr qiziqarli o'tdi.

Qatsi gaplarni yozasiz? Gapirib bering

Sayr maroqli o'tdi. Hammamiz xursand bo'lib qaytdik.

Nechta gap yozar ekansiz? Ikkita gap yozamiz.

Qaterdan boshlab yozasiz? Xat boshidan boshlab.

Qanday harf bilan boshlaysiz? Bosh harf bilan.

Birinchi gapni ayting.

Sayr maroqli o'tdi.

Maroqli so'zi hammaga tushunarlimi?

Maroqlideganda qiziqarli, zo'r yaxshi o'tgan tushuniladi. Siz istagan so'zingizni xatosiz yozishingiz mumkin. Ikkinchi gapni ayting.

Hammamiz xursand bo'lib qaytdik.h,x imlosini tushuntirish.

Juda yaxshi. Demak, insho rejasi nechta qismdan iborat ekan? 3 ta

Uchta qism bo'lsa, nechta xat boshidan yozish kerak? 3 ta xat boshidan...

Nima uchun 3 ta xat boshidan boshlab?

Chunki har bir reja yangi xat boshidan boshlab yoziladi.

Xat boshi qanday belgilab olinadi?

Yangi gapni qanday harf bilan boshlaysiz?

Bosh harf bilan boshlaymiz.

Gap oxiriga nima qo'yasiz? Nuqta.....

Birinchi qismni nechta gap bilan yozishingiz kerak bo'ladi?

3 ta gap bilan.

Ikkinchisi-chi? , 4 ta gap bilan.

Uchinchisi-chi?, 2 ta gap bilan.

Boshidan oxirigacha to'liq so'zlar ishlatiladi. Shunday ekan yozishni boshlaymiz. Avval , sanani, keyin insho deb yozamiz. Inshoning sarlavhasini yozib, rejani yozasiz. Doskadan diqqat bilan xatosiz ko'chiring.

Masalan: O'ninchi yanvar.

Insho

Qishki o'yinlar

4. Darsning asosiy qismi bo'lgan inshoni yozish, o'quvchilar inshoni yozayotganlarida, o'qituvchi ularning ishlarini kuzatadi, ayrim o'quvchilarga individual yordamlashadi, qolganlariga halaqit bermagan holda.

5. O'quvchilar yozgan insholarni tekshiradilar, kamchiliklarini, xatolarini to'g'rilaydilar.

6. Insholarni o'qituvchisiga tekshirish uchun topshiradilar, o'qituvchi ikki kun ichida tekshiradi va o'quvchilar yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarini tahlil qilish uchun tayyorlaydi.

Insho yozish darsi juda yaxshi o'tdi. Dars 40 minut davom etdi. Daftarlari yig'ib olindi. O'quvchilar inshosini baholashda insho mavzusining yoritilishi, reja, matnning mazmuni, inshoning hajmi, imloviy va qismlarning savodlilik, husnixat qoidalari kabilar hisobga olindi. O'quvchilarning insholari quyidagicha baholanadi.

2-“A” sinfda O'quvchilar soni.	Ko'zlatish asosidagi inshini yozgan o'quvchi soni.	O'quvchilar inshoga Qo'yilgan baholar.			
		5”	4”	3”	2”
		b aho	b aho	b aho	b aho
28	26	8	1	3	-
		5			

Biz “A” – sinf o'quvchilari inshosini shu talablar asosida tahlil qildik.

1. Insho mavzusi yaxshi yoritilgan, 2-3 o'quvchi reja qismlarini qo'shimchalar bilan yoritishga harakat qilgan.

2. Ikkita o'quvchi reja qismlariga javob yozishdi, xat boshuga raqam qo'yib ketganlar. Barcha o'quvchilar rejasining uchchala qismini ham to'liq yoritganlar.

3. O'quvchilar inshosi o'rtacha 40-48 so'zli.
4. Gapda so'zlarning joylashish tartibiga 2-3 o'quvchi rioya qilmagan, tipik xatolar deyarli uchramagan.
5. Beshta o'quvchi reja qismlariga javob yozishda xat boshiga rioya qilmagan.

O'quvchilar insho yozishda ijodiy yondashib , qo'shimchalar kiritishga harakat qilganlar. Inshoni 26 o'quvchi yozdi. Shulardan sakkiztasiga "5", 15 ta siga "4" , 3 tasiga "3" baho qo'yildi.

Keyingi ona tili darsining ikkinchi qismidan 15-20 minut vaqt ajratilib, tekshirilgan insholar yuzasidan yakuniy mashg'ulot o'tkaziladi. Sinf o'quvchilariga o'qituvchi daftarini izohlar bilan tarqaladi. Muxammad Karimov Shuhratning inshosi namuna sifatida ko'rsatildi. Uning inshosi o'qib eshittirildi. Uch baho olgan oquvchilardan Yuldoshev Alisherning ham inshosi o'qib eshittirildi, lekin juda imlo xatolarga yo'l qo'yganligi sababli o'rtacha baholanganligi aytib utildi. Yaxshi va o'rta baho olgan o'quvchilar keying darslarda diqqat bilan yozsalar, albatta, yuqori baho olishlari mimkinligi tushuntirib o'tildi.

43 – maktabning 2 “A” sinf o'quvchisi Islomova Shoiri insho yozish darsini metodik qoidalarga rioya qilgan, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish maqsadiga yunaltirilgan holda o'tdi.

2.3. III-IV sinfda kuzatishlar asosida insho yozishga o'rgatish.

Uchinchi sinfda kuzatishlar asosida yozdirilgan inshoning negizini, huddi ikkinchi sinfdagidek, bolalar o'yinlari, tabiat kuzatishlari vahayotiy tajribasi tashkil etadi. Inshining bu turini o'quvchilar ikkinchi sinfda yozishgan bo'lib, uchinchi sinfdagi inshoga ularning oldin orttirgan malaka va kunikmalari asos bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchi sanfda inshoga og'zaki tayyorgarlik ancha qisqartirildi. O'qituvchi insho materialini yig'ish va uni tartibga solishga yordam berib, tayyorgarlik suhbatiga ko'proq vaqt ajratadi. So'ngra o'quvchilar bilan birgalikda reja tuzishga rahbarlik qiladi.

Asta sekin o'quvchilarning insho yozishda mustaqillik darajalari ko'payib boradi. Avval hikoyalar birgalikda tuzilib, uni 2-3 o'quvchi qayta hikoyalagandan keyingina insho yozishga kirishiladi. Keyinchalik qayta hikoyalovchi o'quvchilar soni kamayib boradi va bitta o'quvchi qayta hikoyalangandan keyin insho yozishga kirishilaveradi.

Uchinchi sinfda "Raqamli rasmlar" syujetli bir rasm shuningdek, o'quvchilar hayotiy tajribasiga yaqin mavzuda o'yinlari, tabiatni kuzatish, ekskursiyalar haqida jamoaviy ravishda taxminiy tayyorgarlik bilan og'zaki va yozma insho o'tkaziladi.

Uchinchi sinfda insho yozish darsiga bir dars, zarur bo'lsa keying darsdan 15 minutgacha vaqt ajratiladi. Insho rejasi o'qituvchi rahbarligida birgalikda tuziladi.

Uchinchi sinfda kuzatishlar asosida insho yozdirish ham bevosita o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishga qaratilgandir. Darslarda tabiatni asrang haqidagi , ulug' kishilar hayoti va ijodi haqidagi o'quv filmlarini namoyish qilish mumkin. Bu filmlarni namoyish qilishdan birinchi maqsad o'quvchilar nutqini o'stirish bo'lsa , ikkinchisi- bolalarni tabiat guzalliklarini asrashga o'rgatish, ulug' kishilar hayotiy namunasida bolalarni mehnatsevarlik, halollik, to'g'riso'lik ruhida tarbiyalash kuzda tutiladi. Bunday filmlarni

o'quvchilar yoshiga mos qilib tanlansagina , ular ustida ishlash, bolalar uchun yengil bo'ladi. O'quvchilar hech qiynalmasdan film qahramonlari haqida so'zlab, ularni bir-biriga qiyoslab beradilar, lekin kinofilmlar hikoya uchun asos bo'ladigan qismini ajratish bolalarda biroz bo'lsada qiyinchilik to'g'riadi. Shuning uchun ish turlari kabi kinofilmlarni hikoya qilib berish o'qituvchi tomonidan tayyorlangan reja asosida o'tkaziladi.

O'qituvchi o'zi oldindan shu filmni ko'rib chiqadi va bolalar tarbiyasiga muhim bo'lgan epizodlarini , ko'rinishlarini ajratib olingan holda reja tuzadi. O'quvchilarning faol lug'atiga kiritiladigan yanggi so'zlarni belgilab oladilar. Kinofilm so'zlab berish ikkita turda olib borilishi mumkin.

1. Shu kinofilm haqida qisqacha hikoya qilish.
2. Kinofilmni ba'zi epizodlarini tanlab hikoya qilish.

Filmlar asosida hikoya birgalikda tuzilib, albatta lug'at ishi o'tkaziladi. Kinofilmlar va diafilmlar orqali bolalar nutqini o'stirishdan tashqari, "Kundalik kuzatish daftari" bilan ishlash ham muhim ahamiyatga egadir?

O'quvchilar Kundalik kuzatish daftariga predmetlarni , atrof tabiat hodisalarini, hususan , ob-havo haqidagi shaxsiy kuzatishlarini yozib boradilar. Ular termometr bilan tanishganlaridan keyin har kuni havoning temperaturasini, bulutni , yog'in – sochini, shamolning yunalishini qayd etib , o'tkaziladigan tajriba va amaliy ishlar bo'yicha hulosalar chiqaradilar. O'quvchilar har darsda haftada bir marta , o'tgan haftada ob-havoda qanday o'zgarish ro'y berganligini qayd qiladilar. Har oyning oxirida oylik, mavsum oxirida esa mavsumiy kuzatishlarga yekun yasaydilar.

O'quvchilar "Kundalik kuzatish daftari" ga kuz, qish bahordagi bayramlarni ham yozib boradilar. Har mavsumning oxirida o'quvchilarga o'zlari yoqtirgan birinchi yarim yillikda og'zaki so'zlab berish, ikkinchi yarim yillikda yozma ravishda bayon etish taklif qilinadi.

Bunday kichik insholar ravon nutqning rivojlanishiga imkon beradi. "Kundalik kuzatish daftari"da rasm-topishmoqlar ham bor. O'quvchilar

topishmoqlarning javobini daftarga yozishlari yoki rasmni chizishlari kerak. O'quv yilining oxirida barcha kuzatishlarga yakun yasaladi.

Yuqorida aytilgan ishlar ikkinchi sinfda boshlanadi, uchinchi sinfda ancha mukammal ravishda davom ettiriladi.

Tabiatshunoslik darslarida olib borilgan bu kuzatishlar, kundalik yuritish va tabiat kalendarini to'ldirib boorish ona tili darsida yozdiriladigan kuzatishlar asosidagi inshoga katta zamin bo'la oladi. Ya'ni inshoga tayyorgarlik ishlari bevosita tabiatshunoslik darslariga bog'lab yuboriladi.

Masalan : 3-sinf “Kundalik kuzatish daftari”da berilgan bahor faslining ikkinchi aprel oyidagi ob-havoni kuzatib boradi.

“Kundalik kuzatish daftari”da faslning har bir oyiga alohida-alohida barilgan bo'lib uni yuqorida ko'rsatilgan shartli belgilar bilan to'ldirib boriladi.

O'quvchilar to'ldirgan jadvaldagi kuzatishlar asosida quydagicha insho yozdirish mumkin. O'quvchilar biro y turt haftadan iborat ekanligini juda yaxshi biladilar. Shu haftalarda bo'lgan o'zaro ob-havodagi o'zgarishlarni o'zaro taqqoslash , qiyoslash orqali kichik hajmdagi insholar yoza boshlaydilar. Jadvaldagi shartli belgilar so'zlar bilan ifodalanib , bu so'zlar insho matnini tashlab ketsa , jadvaldagi “Havoning holati” “yog'in sochin” “Temperatura” kabi qismlar insho rejasini hosil qiladi.

O'quvchilarga aprel oyining haftalari ob-havosi haqida insho yozishlari 1 aprel kuniyoq e'lon qilinib quyadilar. Inshoning taxminiy rejası:

1. Havoning holati
2. Yog'in sochin
3. Temperatura

Deb oldindan aytib qo'yiladi. O'quvchilar bir hafta davomida kuzatishlar olib borgach, insho yozishga kirishadilar.

Birinchi haftadagi insho matni quyidagicha bo'lishi mumkin.

Aprel oyida ob-havo.

Oyning birinchi haftasi 1-6-7 aprel kunlari havo ochiq bo'ladi. Kunlar isidi. Quyosh charaqlab turdi.

Haftaning 2-3-4 kunlari havo bulutli bo'ldi. Kunlar sovidi. Yomg'ir yog'di. Kuchli shamol esib turdi. Aprel oyida o'rtacha temperaturada $=17+19$ boldi. Eng salqin kunlarda $+15+17$ daraja bo'ldi.

Bolalar bu hikoyani o'z kuzatish kundaliklaridan foydalangan holda, o'qituvchi rahbarligida tuzadilar. Ikkinchi haftada ham kuzatishlar davom ettiriladi, va oxirida insho yoziladi. Lekin insho ancha kengroq va murakkabroq tus oladi. Negaki, o'quvchilar endi, ob-havo ma'lumotlarini to'g'ridan- to'g'ri emas, balki birinchi hafta ma'lumotlariga taqqoslab yozadilar. O'quvchilarning insho yozish kunikmalari ancha yaxshi hosil bo'lganligi sababli, bahor haqida o'zlari avval yod olgan edi yoki "Kundalik kuzatish daftari"da berilgan biror she'r, maqol yoki tez aytishlardan birini kiritishlari ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

Albatta insho yozish darslarida lug'at ishi o'tkaziladi. Bolalarga imlosi qiyin bo'lgan so'zlarning yozilishi va ma'nosi tushuntiriladi. Ikkinchi hafta yakunida ob-havo kuzatishlari haqidagi insho taxminan shunday yozdiriladi.

Tayyorgarlik suhbatini o'tkaziladi, ya'ni quyidagi savollar bilan o'quvchilarga murojat qilinadi. Hozir qanday fasl? Bahor faslining nechanchi oyi? Nomini ayting. Aprel oyining ikkinchi haftasida ob-havo qanday bo'ladi? Oyning birinchi haftasidagi havoning holatini yog'ingarchilik va temperaturani taqqoslang.

O'qituvchi bolalar javoblarini to'ldirib, sistemaga solib turadi. Qisqa aniq va lo'nda javoblarga bolalar e'tiborini ko'proq qaratadi. Insho yozishdan oldin, o'qituvchining o'zi bahor haqida she'rdan to'rtliklar, maqol yoki hikmatli so'zlardan namunalar aytadi.

Insho rejasi avvalgidek qolishi, faqat yana bir qism qo'shilishi e'lon qilinadi.

Reja

1. Havoning holati
2. Yog'in sochin
3. Temperatira
4. Birinchi haftaga taqqoslash.

Bolalarga reja asosida bir marta qisqa hikoya qilish taklif e'tiladi. Biz o'quvchi rejasining bitta qismiga oid ma'lumitni beradi. Shunda o'quvchilar reja qismlari orasidagi chegarani yaqqol ajrata oladilar. Rejaning to'rtinchi qismi insho hulosasi kabi qabul qilinadi, ya'ni bunda birinchi va ikkinchi hafta ma'lumotlari qiyoslanib, umumiy hulosa chiqaradilar.

Inshoning taxminiy matni.

Aprel oyida ob-havo. Bahorgi harakat-kuzgi barakat. (Xalq hikmati).

Bahor fasli. Aprel oyining ikkinchi haftasi , 10-11-12 aprelda havo ochiq bo'ldi. Kunlar isib ketdi. Quyosh tikka kutarildi. Haftaning oxirida yog'in sochin ko'p bo'ldi. 13-14 aprelda yomg'ir va do'l yog'di. Kuchli shamol bo'ldi.

Haftaning boshida va oxirida +15+17 darajada issiq bo'ldi. Temperatura keskin o'zgarib turdi. Aprel oyining birinchi haftasida yomg'ir yog'di. Ikkinchisida esa do'l ham yog'di. Ikkala haftada ob-havo keskin o'zgarib turdi.

O'quvchilar inshoni yozib tugatgach, tekshiradilar va o'qituvchiga topshiradilar. Bu turdagi inshoni istalgan faslning istalgan haftasida o'tkazish mumkin. Lekin har bir oyning har bir hafta yakunida o'tkazaverish shart emas, deb o'ylayman. Negaki bu ishlardan bolalar sovib ketishi , ularni zeriktirib qo'yishi mumkin.

Chunonchi bu tariqa ma'lumotlar og'zaki ravishda , suhbat orqali to'planib borishi, O'quvchilarning tabiatga , jonivor va o'simliklarga bo'lgan mehrini oshirib, tabiatdagi o'zgarishlarni ob-havoni izchillik bilan kuzatib borishga o'rgatadi, hamda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stiradi.

2.3 4-sinfda kuzatishlar asosida insho yozishga o'rgatish.

4-sinfda yoziladigan insho hikoya tarzida bo'lib, u o'qituvchi va o'quvchilar zimmasiga katta ma'suliyatli ishlarni yuklaydi. Avvalo o'qituvchi barcha diqqat e'tiborini o'quvchilarning quyidagi kunikma va malakalarini hosil qila olishga qaratishi lozim:

1. Tasvir va muhokama elementlari bo'lgan kuzatishlar , satrlar, bolalar o'yinlari va h k haqida hikoya tuzish va yozish.

2. O'z hayotiy tajribasiga bo'lgan voqea hodisalar haqida hikoya tuzish va yozish.

3. Bir rasm yoki biror film , kinofilm , diafilm lavhasi asosida hikoya tuzib, yozish.

4. Tarkibida so'roq gap , yo darak gap , yoki his-hayajon gaplar qatnashgan rejani mustaqil tuza olish.

5. So'zlarni o'z o'rbida ishlata olish, gapni to'g'ri tuzish.

O'qituvchi bu ko'nikma va malakalarni osondan qiyinga prinsipi asosida bolalarda hosil qilsagina , o'z maqsadga erishgan bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarni insho yozishga har tomonlama puhta tayyorlanishi mavzuni tushuntirishda , yozadigan materialni to'g'ri tanlashda , rejani tuzishda so'zlarni ishlatishda , imlo xatolarning oldini olishda bolalarga doimo yordam berishi lozim.

Muhokama elementlari qatnashgan insho yozish bolalar uchun yangilik bo'lib, o'ziga xos murakkablikka egadir. O'quvchilar , ko'rgan bilganlari , voqea – hodisalar haqida muhokama qiladilar, xulosa chiqarishga o'rganadilar. Bunday ko'nikmalar bolalarda asta – sekin hosil qilinadi.

To'rtinchidan sinfda inshoni turli mavzularda yozish mumkin. Bularda eng muhimi kuzatishlar , bolalar o'yinlari va hayotiy tajribalar haqidagi “ Mening sevimli mashg'ulotim” “Qushlarga yordam” “Men onamga yordamchi” kabi mavzularda sanaladi.

Insho mavzuni hozirgi hayotga mos holda , hayotiy qilib tanlash lozim. Shundagina bolalar ichida to'qib emas, balki shu ko'rganlarni shundayligicha , real ifodalab yozadilar.

To'rtinchi sinfda xat yozishga o'rgatishning alohida ijodiy ishbibg bir turi sifatida o'rgatiladi. Savodli aniq , lo'nda yozish yo'llarini o'qituvchi tushuntirib borishi kerak. Xat yozish tartibini quyidagicha tushuntirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Avval xat yozayotgan shaxs ismi , unga salom yozadilar, unga aytmoqchi bo'lgan fikrlari va oxirida xat yozilgan kun, sana va imzo quyiladi.

Inshoning qaysi turi bo'lmasin unga tayyorgarlik kurishda so'zlar mashqni o'tkazish yaxshi natija beradi. Bu mashqlar o'quvchilarga so'zlarning sinonimlarini yaxshi bolib olishga yordam baradi. Masalan charchadi-toliqdi; maroqli- qiziqarli, Yaxshi – zo'r, ahil-inoq, do'st.... O'quvchilar so'zlarning sinonimlarini bilib olgach, ularni kerakli o'rinlarda ishlata olsalar insho mazmunga boy va chiroyli chaqadi.

4- sinfda kuzatishlar asosida yoziladigan insho darsiga bir dars, zarur bo'lsa keying darsdan 15-20 minut vaqt ajratiladi. Inshoning bu turini o'tkazishda faqat tabiat hodisalarini kuzatish hayotiy tajribalar haqida yozibgina qolmay , balki maktabda o'tkaziladigan uchrashuvlar, kechalar haqidagi taasurotlardan foydalanish ham yaxshi natijalar beradi.

Bolalar yozuvchisi Turaunbiy Adashboev bilan bo'lgan uchrashuv haqida yozdiriladigan inshoga "Tursunboy Adashboev mehmonimiz" mavzusini tanladik. Shu mavzu bo'yicha kuzatishlar asosida insho o'tkazishni maqsad qildik, insho taxminan quyidagicha o'tkazish mumkin.

Tursunboy Adashboev mehmonimiz

Insho bolalarning sevimli yozuvchisi Tursunboy Adashboev bilan bo'lgan uchrashuvda n so'ng o'tkaziladi. O'quvchilar yozuvchining hayotiga oid rasmlar , kitoblar, katta portereti osib qo'yilgan gullar bilan bezatilgan maktab zaliga yig'iladilar. O'qituvchi bayram boshlanishidan oldin o'quvchilarga shu

uchrashuvni diqqat bilan kuzatishlari yozuvchining asarlari va undagi qaxramonlarni bilib olishlari kerakligini tushuntiradi. Bolalarga shu bayram tassurotlari haqida insho yozishlari kerakligi ham aytib qo'yiladi.

Inshoga tayyorgarlik davri shu tariqa o'tadi. Insho yozish darsiga bolalar ma'lum tayyorgarlik bilan keladilar.

Insho yozish darsining qurulishi .

1. Mavzuni va maqsadni muhokama qilish.
2. Materialni tartibga solish, insho mavzusaga oid materiallarni tanlash.
3. Reja tuzish.

Bolalar , siz Tursunboy Adashboev bilan uchrashdingiz. Shu uchrashuv haqida insho yozishingiz oldindan aytib qo'ygan edim. Insho yozishingizdan oldin bayramni qanchalik diqqat bilan kuzatganligingizni tekshirib qo'ymoqchiman. Savollarimga diqqat bilan o'ylab javob bersangiz, Shu javoblaringiz yozadigan inshoning matnini hosil qiladi.

Maktabimizga kim mexmon bo'lib keldi?

Maktabimizga bolalar shoiri Tursunboy Adashboev mexmon bo'lib keldi.

Bu uchrashuv qayerda o'tkaziladi?

Uchrashuv kecha maktabimiz zalida o'tkaziladi.

Uchrashuvda kimlar qatnashadi?

Uchrashuvda o'qituvchilar va 3-4 sinf o'quvchilari qatnashadilar.

Maktab zali qanday bezatiladi?

Maktab zali shoirning katta rasmi kitoblar va gullar bilan bezatiladi.

Uchrashuvda Tursunboy Adashboevning qaysi asarlari namoyish etildi?

O'quvchilar , Tursunboy Adashboevning hayoti va ijodi to'g'risida gapirdilar.

O'quvchi qizlar shoirning she'r va qo'shiqlarini ijro etdilar.

Uchrashuv oxirida Tursunboy Adashboevga so'z berishdi. Ular yangi yozilgan sherlaridan o'qib berdilar.

Uchrashuv qanday o'tdi?

Uchrashuv qiziqarli o'tdi. Biz Tursunboy adashboevga guldastalar taqdim etdik.

Barakalla. Uchrashuv ni juda diqqat bilan kuzatibsizlar. Endi shu kuzatishlaringiz haqida insho yozishddan oldin , unga reja tuzib olamiz. Uchrashuv qanday boshlangani, keyin qanday davom etgani, qanday yakunlanganini, nimalarni ko'rganingizni , yaxshilab eslab olsangiz, reja tuzish oson bo'ladi. Demak , avval inshoda nimalar haqida yozamiz? Rejaning birinchi qismiga nima deb yozamiz. O'quvchilar javob berishga qiynalsalar o'qituvchi quyidagi yo'llovchi saollarni berib yordamlashadi.

Kim mehmonga kelganligini , uchrashuv qayerda o'tkazilganini, zal qanday bezatilganini, uchrashuvlarda kimlar qatnashganligini eslab ko'ring – chi? Shu savollarga javoblarni o'ylab rejaning birinchi qismini ayting.

Bolalar o'ylab ko'rib , o'z takliflarini aytadilar. Birgalikda bitta hulosaga qilinadi. Uchrashuv maktab zalida o'tkaziladi.

Endi rejaning ikkinchi qismini o'ylab ko'rib ayting.

O'qituvchi biroz yordamlashadi.

Bolalar yozuvchining qanday asarlarini aytishdi, qaysi ertakni sahnalashtirdilar, ertak sizlarga yoqdimi yoki yo'qmi, shular haqida o'ylab, rejaning ikkinchi qismini ayting. O'quvchilar o'ylab ko'rib, umumiy xulosa chiqardilar. Yozuvchining asarlari namoyish etildi.

Juda to'g'ri , endi siz uchrashuv oxiriga kimga so'z berilganligini, Tursunboy adashboev nimalar deganligini, uchrashuv qanday o'tganligini yaxshilab o'ylab ko'rasiz va rejaning uchinchi qismini aytishingiz kerak bo'ladi. O'quvchilar o'z takliflarini aytadilat va umumiy hulosa chiqaradi.

Uchrashuv qiziqarli o'tdi.

Juda yaxshi , mana inshoning rejasini tuzib oldingiz. Gemak , inshoning mavzusini biz uchrashuvda n oldin “Tursunboy Adashboev - mehmonimiz” deb nomlangan edi. Shundayligicha qoldiramiz.

Siz boshqa mavzularda juda ko'p insholr yozgansiz. Shunda rejaning har bir qismiga javoblar xat boshidan boshlab yozilishi yaxshi bilib olgansiz. Insho rejani necha qismdan iborat bo'ldi.

Uch qismdan iborat bo'ldi.

To'g'ri. Reja uchta qismdan iborat bo'lsa , nechta xat boshi , insho necha bo'lim bo'ladi.

Juda yaxshi , demak, siz rejaning har biriga mos gaplarni yangi yo'ldan, xat boshidan yozasiz uch bo'limli insho hosil bo'ladi.

Xat boshi qanday belgilanar edi?

Xat boshi hoshiya yoniga ko'rsatgich va o'rta barmoqlarini birlashtirib qo'yiladi. Har bir bo'limni hoshiyadan so'ng ikki barmoqcha joy qoldirib boshlab yozamiz.

Inshoni nutqiy tayyorlash

4. Reja ustida ishlash, ya'ni har bir qismga oid gaplarni ajratib , bo'limlar chegarasini belgilab olish. Buning uchun o'qituvchi bir o'quvchiga rejaning 1-qisqismini o'qitadi. Shu o'quvchi , yoki boshqa bir o'quvchi shu bolim mazmunini gapirib beradi.

Maktabimiz bolalar yozuvchisi Tursunboy Adashboev mehmon bo'ldilar. Uchrashuv maktab zalida o'tkazildi. Zal Tursunboy Adashboevning rasmi, kitoblar va gullar bilan jihozlangan edi. Uchrashuvda o'qituvchilar va 3-4 o'quvchilari qatnashdilar.

Juda yaxshi . o'rtig'ingiz birinchi qismiga necha gap aytdi? 4 ta gap.

O'qituvchi topshirig'iga ko'ra , bir o'quvchi rejaning 2-qismini o'qiydi va uning mazmunini gapirib beradi.

O'quvchilar Tursunboy Adashboev hayoti va ijodi haqida so'zladilar. 4 – sinf qizlari shoirning sherlaridan yod oldilar va qo'shiqlar ijro etdilar.

Shu tariqa rejaning 3-qismi ham o'qitiladi va gapirtiriladi.

Bayram qiziqarli o'tdi.

Uchrashuv oxirida Tursunboy Adashboevga soʻz berildi. Ular yangi yozilgan sheʼrlaridan oʻqib berdilar. Ular yangi yozilgan sheʼrlardan oʻqib berdilar. Uchrashuv juda qiziqarli boʻldi, mehmonga chiroyli guldastalar taqdim qildik.

Juda yaxshi , uchinchi qismda nechta gap yozilar ekan? 4 ta.

Demak, rejaning har bir qismiga xat boshidan boshlab , torttadan gap yoziladigan boʻldi. Siz bu gaplarga oʻz qoʻshimchalarizingizni qoʻshsangiz boʻladi. Chunki xatosiz yozishga harakat qiling.

Oʻqituvchi reja qismlariga oid gaplarni hikoya qilayotgan oʻquvchilarga yoʻllanmalar berib turishi mumkin. Agar biror oʻquvchi qayta hikoyalshda qiynalsa , shu qismni yana bir bor boshqa oʻquvchiga qayta hikoyalatishi mumkin. Qachonki oʻquvchilar qaysi qismga qaysi gapni yozish kerakligini aniq bilib olsinlar.

Oʻqituvchi , oʻquvchilarning bilim saviyalarini hisobga olgan holda, matnda uchragan notanish yoki yozilishi qiyin boʻlgan soʻzlarga izoh berib tushuntiradi, sinonimlarni aytadi. Masalan , namoyish soʻzining yozilishi koʻrsatib , bu soʻz koʻrsatish, ijro etish maʼnosini anglatishi tushuntiriladi. Bundan tashqari, gaplarda uchragan uyushiq boʻlaklar orasiga vergul qoʻyishni ham tushuntirish lozim.

Inshoni yozma shakllantirishga oʻtiladi.

Oʻquvchilar yozgan inshosi namunasini beramiz.

Oltinchi mart

Insho

Tursunboy Adashboev – mehmonimiz

Reja.

1. Uchrashuv maktab zalida oʻtkazildi.
2. Yozuvchining asarlari namoyish etildi.
3. Uchrashuv qiziqarli oʻtdi.

O'quvchilar rejani daftariga yozmaydilar. Maktabimizda bolalar shoiri Tursunboy Adashboev mehmon bo'ldilar. Uchrashuv maktab zalida o'tkazildi. Zal Tursunboy Adashboevning rasmi, kitoblari va gullar bilan bezatilgan. Uchrashuvda o'qituvchilar va 3-4 sinf o'quvchilari qatnashdilar.

O'quvchilar Tursunboy Adashboevning hayoti va ijodi haqida gapirdilar. 4-sinf qizlari shoirning she'rlaridan yod aytdilar va qo'shiqlar ijro etdilar.

Uchrashuv oxirida Tursunboy Adashboevga so'z berildi. Ular yangi yozilgan she'rlaridan o'qib berdilar. Ular yangi yozilgan she'rlardan o'qib berdilar. Uchrashuv juda qiziqarli bo'ldi, mehmonga chiroyli guldastalar taqdim qildik.

O'quvchilar inshoni yozayotganda , o'qituvchi boshqalarga halaqit bermagan holda ba'zi o'quvchilarga individual yordam beradi. Har bir o'quvchi o'zi yozgan inshosini tekshiradi, xatolarini to'g'irlaydi. Boshlang'ich sinflarda insho oqqa kuchirilmaydi. O'quvchi xatolarni o'zi to'g'orlagani uchun baho pasaytirilmaydi, balki inshosini to'g'irlagan o'quvchi rag'batlantiriladi.

Insholarni o'qituvchiga tekshirish uchun topshiradilar, o'qituvchi ikki kun ichida ishni tekshiradi va insho tahlil va xatolar ustida ishlash darsiga tayyorlanadi, uni o'tkazadi.

Xulosa

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqini o'stirish murakkab jarayon hisoblanadi. Metodik adabiyotlarda boshlang'ich sinflarda insho yozishga o'rgatish muammosi xususida ba'zi metodik ko'rsatmalar bayon qilingan.

Insholar janri, manbalari va ta'limiy maqsadlariga kura farqlanadi. Har bir tur inshoni o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

Biz boshlang'ich sinflarda kuzatishlar asosida insho yozishga o'rgatish muammosini o'rganib quyidagi xulosalarga keldik.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqiga quyiladigan talablarni, dastur talablarini amalga oshirish uchun o'quvchilar yozma nutqini o'stiradigan mashqlarni, insholarni muntazam va izchil o'tkazish lozim.

1-4 sinflar "ona tili" darsligida rasm asosida insho yozishga o'rgatishga alohida e'tibor berilgan holda, kuzatishlar asosida insho yozishga o'rgatish masalasiga yetarlicha e'tibor berilmagan.

Olib borgan kuzatishlarimiz o'quvchilar insho turlarini farqlashda qiynalayotganliklari, kuzatishlar asosida insho yozdirishdagi ishlar bosqichini bilmasliklarini ko'rsatdi.

1-2 sinflarda kuzatishlar asosida og'zaki hikoya tuzishga o'rgatiladi. Bunda o'qituvchi tomonidan beriladigan savollarning ahamoyati katta. Shuning uchun beriladigan savollar aniq, soda bo'lishi lozim.

O'qituvchi tomonidan o'qib yoki hikoya qilib berish uchun tanlangan badiiy asarlarning g'oyaviy mazmuni o'quvchilarga tushunarli bo'lsa, ularning yuragiga yetib borsa, asar o'zining tarbiyaviy rolini bajargan bo'ladi.

O'quvchilar tomonidan badiiy asarlarni qanday idrok qilish o'qituvchiga bog'liq.

O'qituvchi asarni qanchalik ifodali, mazmunli o'qisa, o'quvchilar shunchalik diqqat bilan tinglaydilar, uning mazmunini yaxshi tushunadilar. Badiiy asarlar o'qituvchi tomonidan kitobdan o'qib berilishi, kitobsiz yoddan

aytib berilishi, hikoya qilib berilishi mumkin. Asar mazmunini o'quvchilarga yetkazish asar janriga va tinglovchilarning yoshiga bog'liq.

Xalq ertaklarini — xalq og'zaki ijodiyoti namunalarini o'quvchilarga kitobdan o'qib bermasdan, hikoya qilib bergan ma'qul. O'qituvchi dastur asosida o'qib berishi yoki hikoya qilib berishi uchun asar tanlagach, asarning g'oyaviy mazmuni va uning tili o'quvchilarga tushunarlimi yoki yo'qmi, shuni oldindan tasavur etishi kerak. Agar o'qituvchi ulardagi ayrim ifodalar, so'zlar o'quvchilarga tushunarli emasligini taxmin qilsa, u holda muallifning bayon etmoqchi bo'lgan fikrlarini o'quvchilar tomonidan idrok etish qiyinlashadi. Mana shunday hollarni oldindan bilgan o'qituvchi o'quvchilarga ma'nosi tushunarsiz bo'lgan so'zlarni quyidagi usullar yordamida tushuntirishi lozim: asarni hikoya qilayotgan vaqtda to'xtalmasdan (uzoq pauza qilmasdan), yangi so'zni sinonimi bilan yoki qisqa jumlar bilan tushuntirishi kerak. Masalan, K. D. Ushinskiyning „Sabr qilishni o'rgan" nomli asarini o'qib berishda „g'o'ra" so'zi uchraydi, bu so'z hammaga tushunarli bo'lavermaydi, shu sababli o'qituvchi bu so'zni o'qiyotganda o'quvchilarga tushunarli bo'lgan „xom" so'zini ishlatadi. Demak, o'qituvchi o'quvchilarni badiiy asarlar bilan tanishtirishdan avval asardagi ayrim so'zlarni, ya'ni o'quvchilar tushunishi qiyin bo'lgan so'zlarni qaysi so'zlar bilan almashtirishni belgilab oladi. Agar ayrim notanish so'zlar va jumlar o'quvchilarga muallifning asosiy fikrini idrok qilishlariga xalaqit bermasa, u holda ushbu so'zlarning ma'nosini tushuntirish shart emas. Har bir yoshda o'quvchi nutqini rivojlantirishning o'ziga xos vazifalari bo'ladi. Adabiy asarlarni idrok etish darajasi o'sib borgan sari bu vazifalar murakkablashib boradi.

Kichik sinf dan boshlab o'quvchilarni adabiy asar janrlarini ajrata olishga o'rgatish lozim.

O'qituvchi o'quvchilarga badiiy asarning janrini aytishi kerak. Masalan, „Bugun men sizlarga ertak aytib beraman", „Hozir men hikoya o'qib beraman", „She'r o'qib beraman" kabi.

Kichik sinf o'quvchilari badiiy asar janri haqida eshitishi bilan „Masha va ayiq“, „Qizg'anchiq it“, „Mushuk, xo'roz va tulki“, „Bo'ri bilan echki“ ertak ekanligini, X. Ermatovning „Non“, „Shaftoli“ asarlari she'r ekanligini, X. To'xtaboyevning „Hassa“, E. A'zamning „May yomg'iri“ asarlari hikoya ekanligini esda olib qoladilar. O'quvchilarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishda ertaklar hikoya qilib beriladi, hikoya o'qib beriladi, she'r yoddan aytib beriladi.

Turli adabiy janrlar ularni o'quvchilarga yetkazishning turli xarakterini talab etadi. Kichik maktabgacha yoshdagi o'quvchilarga ertaklarni kitobdan o'qib bermasdan hikoya qilib bergan ma'qul, bu o'quvchilarga emotsional ta'sir o'tkazishni kuchaytiradi, ertakning asosiy mazmunini tushunib olishga yordam beradi. Agar o'qituvchi kitobga qaramay, o'quvchilarga qarab hikoya qilsa, u xuddi har bir o'quvchi bilan gaplashayotgandek bo'lib, bu orqali monolog nutqni eshitish va uni tushunish malakasini tarbiyalashga erishadi. Agar ertak mazmun jihatdan uncha katta bo'lmasa, uni ikki, hatto uch marta hikoya qilib berishi yoki eng qiziqarli joylarini takrorlashi mumkin.

Asar (ertak) hikoya qilib berilgach, o'quvchilardan ertakdagi eng qiziqarli joylarini esga tushirib takrorlash taklif etiladi.

Kichik yoshdagi o'quvchilar uchun hajmi uncha katta bo'lmagan hikoya va ertaklarni, she'rlarni o'qib berish tavsiya etiladi. O. Mahkamovning „Mushuk“, X. Ermatovning „Non“, „Shaf-toli“, „Anor“ kabi asarlari kichikintoylarda ijobiy his-tuyg'ularni, nafosatni tarbiyalashga yordam beradi.

Kichik sinfda she'r yoki hikoyalar o'qib berilgach, o'quvchilarga o'z hayotlaridagi shunga yaqin voqealarni eslab aytib berish taklif etiladi.

Masalan, M. Murodovning „To'p“ hikoyasi o'qib berilgach, o'quvchilardan to'pni kim bilan o'ynashini, u bilan qanday o'yinlar o'ynashlarini so'rash mumkin.

Kichik yoshdagi o'quvchilarga ko'plab savollar berish yaramaydi, biroq asar mazmunini qanday tushunib olganliklarini, qaysi so'zlar xotirasida

qolganligini, asar mazmunida uning shaxsiy hayoti bilan bog'liq voqealar borligini aniqlash maqsadida ikkita-uchta savol berish kerak.

Yil davomida o'quvchilarga tanish bo'lgan hikoyalar, ertaklar, she'rlar takroran o'qib beriladi, hikoya qilinadi. Bu ertak va hikoyalar, she'rlarning o'quvchilar xotirasida uzoq saqlanib qolishiga yordam beradi.

O'rta sinfda badiiy asarlarni idrok etish bo'yicha ishlar olib boriladi. Bu sinf o'quvchilari endi asar mazmunini chuqur idrok eta boshlaydilar. O'quvchilar asardagi qahramonlarga nisbatan o'z munosabatlarini aniqroq ifoda etishga harakat qiladilar. Bu sinfda ham xuddi kichik sinfdagidek, o'qituvchi tanishtirayotgan adabiy asar janrini aytadi: Hozir men sizlarga o'zbek xalq ertaklaridan „Oltin tarvuz“ ertagini hikoya qilib beraman yoki L. N. Tolstoyning „Ikki o'rtoq“ hikoyasini o'qib beraman va h. k.

Bu sinfda adabiy asar mavzulari juda xilma-xildir. O'qituvchi o'quvchilar diqqatini asarning mazmunigagina emas, balki adabiy tilning ayrim xususiyatlariga (badiiy so'z va ifoda, o'xshatish va taqqoslash) ham yo'naltiradi. O'qituvchi asarni o'qib bergach, o'quvchilarga beriladigan savollarni puxta o'y'ab, to'g'ri berishi kerak. O'quvchilarga beriladigan savol asardagi qahramonlarning xatti-harakatlarini baholashga, ular haqidagi o'z fikrlarini to'g'ri bayon etishga yordam berishi lozim. To'g'ri berilgan savol o'quvchilarni o'ylashga, fikr yuritishga, xulosa chiqarishga undaydi.

Masalan, „Oltin tarvuz“ ertagini hikoya qilib bergach, quyidagi savollarni berish mumkin: „Bu ertakda nima haqida hikoya qilinadi? Sizga bu ertakda kim nimasi bilan yoqdi? Laylakni davolagan chol haqida nima deyish mumkin? Boy haqida-chi? Boy Laylakning oyog'ini sindirib to'g'ri ish qildimi? Nima uchun kambag'al cholning polizida oltin tarvuz o'nib chiqdi? Boyning polizida-chi? Boyni Laylak qanday jazoladi? Nima uchun Laylak boyni jazoladi?“¹¹

Bunday savollar o'quvchilar asar mazmunini qanday tushunib olganliklarini va asar qahramonlariga nisbatan munosabatlari qanday ekanligini aniqlashga yordam beradi. Badiiy asarni to'g'ri tahlil qilish badiiy nutqning

qimmatini oshiradi, o'quvchilarni mustaqil hikoya qilishga tayyorlaydi. O'rta sinfda ham xuddi kichik sinfdagidek o'quvchilar lug'atini boyitish bo'yicha ishlar olib boriladi, mashg'ulotda o'zlashtirilgan yangi so'zlarni mustahkamlash ustida ish olib boriladi.

I.Siyosiy va rahbariy adabiyotlar:

1. Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent. “Ma'naviyat” 2008.172.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartlari. Toshkent.2015.
3. Barkamol avlod -O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent, 1997.
4. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi Vazirligi “Bolajon” tayanch dasturi, Toshkent. 2010.

II.Ilmiy nashrlar:

5. Ta'lim taraqqiyoti. Axborotnoma. 1- maxsus son, 2014 .
6. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi // O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining axborotnomasi, 7-maxsus son. T.: Sharq, 2015.
7. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi o'quv dasturi // Boshlang'ich. ta'lim jurnali. Toshkent, 2015.№5.
8. R. Safarova. Nutqiy ko'nikmalarni tekshirish asoslari. //Boshl. ta'l. jurnali. Toshkent, 2014. №3.
9. Safarov.O. Oliy o'quv yurtlarida o'quvchilar adabiyotini o'qitish muammolari. “Til va adabiyot ta'limi”. 2012. 3-4-sonlar.
- 10.Zaynutdinova M. – O'quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatlarini rivojlantirish omillari. Xalq ta'limi jurnali, № 1, 2013.

III.Darslik va o'quv qo'llanmalari:

- 11.Husanboyeva.Q. Tahlil - adabiyotni anglash yo'li. Toshkent. “Muharrir” nashriyoti. 2013.432 bet.
- 12.Husanboyeva.Q. Adabiyot – Ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. Toshkent. Alisher navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.2009.-368 bet.

13. Abdullayeva K. Nazarov K. Yo'ldosheva Sh. Savod o'rgatish darslari . T.: O'qituvchi.1913 .
14. Qosimova.K. Ona tili o'qitish metodikasi. "Nosir" nashriyoti. Toshkent.2009. 352 bet.
15. G'ulomov M. Yozuv daftari. T. Ma'naviyat. 2012
16. Safarova R. Va b. Savod o'rgatish. T. Ma'naviyat. 2015.
17. G'afforova T. G'ulomova X. Eshturdiyeva G. 1- sinfda savod o'rgatish. T.: Sharq. 1915.
18. G'afforova T, Shodmonov E, Eshturdiyeva G. Ona tili . 1-sinf uchun. T .: O'qituvchi .1915.
19. Abdullayeva K. Ona tili . T.O'qituvchi .2014.
20. Gapparova T, Shodmonov E, G'ulomova X. Ona tili . 1-sinf uchun.
21. T .Sharq. 2015.
22. G'ulomova X. G'afforova T. 1- sinfda ona tili darslari. T.: Sharq. 2015.
23. Qosimova K. Fuzailov S. Ne'matova A. Ona tili . 2- sinf uchun T.:
24. Cho'lpon. 2015.
25. Qosimova K. Ne'matova A. 2- sinfda ona tili darslari T. Cho'lpon. 2014.
26. Fuzailov S, Xudoberganova M, Ona tili . 3- sinf uchun T. O'qituvchi .2014.
27. Xudoyberganova M. Muxtorova M. 3- sinfda ona tili darslari. 3- sinf uchun T. O'qituvchi .2014.
28. Ikromova R. G'ulomova X, Yo'ldosheva Sh, Shodmonqulova D. Ona tili 4- sinf uchun T. O'qituvchi. 2014-yil.
29. Alekseyev M.N. Deduksiya i induksiya v uchebnom prosesse. // Sovetskaya pedagogika, 1969, № 1, s. 104
30. G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni. –T.: O'qituvchi, 2005.
31. Sh.Nurullayeva. Mustaqil fikrlash mezonlari. // Xalq ta'limi jurnali. 2011.39-b.
32. Umarova M., Hakimova Sh. O'qish kitobi. –Toshkent, Ijod dunyosi.2012.240b.

- 33.Hamroyev.A. Boshlang'ich sinfda o'quvchilar ishini ijodiy tashkil etish.T.2014.

IV.Elektron ta`lim resurslari

1. www.ziynet.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.tdpu.uz

M u n d a r i j a

Kirish. Mavzuning dolzarbligi.....	
I-bob. Bog'lanishli nutqni o'stirish usullari.....	
1.1 Bog'lanishli nutqqa qo'yilgan talablar.....	
1.2. Boshlanishli nutqni o'stirishga yozma ishlarning o'rni.....	
1.3. Adabiy asarlarni qayta hikoya qilish va bg'lanishli nutq.....	
II bob. Kuzatishlar asosida bog'lanishli nutqni o'stirish.....	
2.1. Kuzatishlar asosida bog'lanishli nutqni o'stirish.....	
2.2. I-II- sinflarda bog'lanishli nutqini o'stirish.....	
2.3. III-IV sinfda kuzatishlar asosida bog'lanishli nutqini o'stirish..	
Umumiy xulosalar.....	
Foydalangan adabiyotlar.....	